

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO‘MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Himoyaga ruxsat
Kafedra mudiri

20__y. “__” ____

O‘zbekiston Respublikasida sug’urta bozorini rivojlanish bosqichlari va
takomillashtirish yo’llari

mavzusida

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bitiruvchi _____ Mengishova M.A.
imzo

Ilmiy rahbar _____ Xasanov F .R.
imzo

Taqrizchi _____ i.f.n.prof.Ergashxo’jayeva Sh.J.
imzo

Maslahatchi _____ i.f.n.Iminova N.A.
imzo

HFX bo’yicha
maslahatchi _____ Qodirov F.M.
imzo

Toshkent – 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO‘MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment
fakulteti, Menejment va marketing kafedrası, 5340200-Menejment yo‘nalishi

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri_____

20__y. “__” _____

Mengishova Maxliyo Abdivaliyevnaning

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini rivojlanish bosqichlari va
takomillashtirish yo‘llari mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

T O P S H I R I Q

1. Mavzu universitetning 2014 yil “__” ____dagi __ – sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Ishni himoyaga topshirish muddati _____ 3.
Ishga oid dastlabki ma’lumotlar: Prezident asarlari, iqtisodiy darsliklar, qonun, qaror, farmonlar va boshqa me’yoriy hujjatlar, ilmiy jurnallar, korxona moliyaviy hisoboti hamda internet ma’lumotlari.

4. Hisoblash–tushuntirish yozmalar mazmuni: Kirish, O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini rivojlanishining nazariy va huquqiy asoslari, O‘zbekistonda sug‘urta bozorini hozirgi holati, O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini takomillashtirish yo‘llari, Hayot faoliyati xavfsizligi, Xulosa

5. Grafik materiallar ro‘yxati: Prezentasiya va slaydlar

6. Topshiriq berilgan sana: 15.01.2014 yil

Rahbar _____

imzo

Topshiriq oldim_____

imzo

7. Ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha maslahatchilar:

Bo‘lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
1	Xasanov F	15.01.2014	20.01.2014
2	Xasanov F	20.02.2014	25.02.2014
3	Xasanov F	25.03.2014	30.03.2014
4	Qodirov F	24.04.2014	30.04.2014

8. Ishni bajarish grafigi

T/r	Ish bo‘limlari nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1.	O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini iivojlanishining nazariy va huquqiy asoslari	20.01.2014	
2.	O‘zbekistonda sug‘urta bozorini hozirgi holati	25.02.2014	
3.	O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini takomillashtirish yo‘llari	30.03.2014	
4.	Hayot faoliyati xavfsizligi	30.04.2014	

Bitiruvchi _____

Imzo

2014 yil “____” _____

Rahbar _____

Imzo

2014 yil “____” _____

Ushbu bitiruv malakaviy ishida O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozori va uning rivojlanish istiqbollari masalasi o‘rganilgan bo‘lib, 2007 –2012 yillar davrida sug‘urta xizmatlari milliy bozori va “ALSKOM”OAJ SKning o‘sinh dinamikalari taxlili amalga oshirilgan, shuningdek davlat iqtisodiyotning ushbu moliyaviy sektorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalar berilgan.

В данной выпускной квалификационной работе исследован страховой рынок Республики Узбекистан и перспективы его развития, вместе с этим осуществлен анализ динамики национального рынка страховых услуг за период 2007 – 2012 годы в целом и страховой компании ОАО «ALSKOM», выявлены факторы, сдерживающие рост исследуемого финансового сектора экономики страны и даны практические рекомендации по его усовершенствованию.

In this final qualifying work we`ve investigated the insurance market of Uzbekistan and prospects of its development, an analysis of the dynamics of the national insurance market for the period 2007 – 2012 years, as a whole, as well as the Insurance Company «ALSKOM» was carried out, factors that restrain the growth of the tested country`s financial sector were identified and the practical recommendations for its improvement were given.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANISHINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1.Sug'urtaning maqsadi va vazifalari.....	9
1.2.Sug'urta bozorini tashkillashtirishning iqtisodiy zarurati.....	20
2. O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI HOZIRGI HOLATI.....	29
2.1.O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari faoliyati tahlili...	29
2.2.OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining faoliyati tahlili.....	36
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	49
3.1.O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'lari.....	49
3.2. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash turining jahon tajribasi.....	51
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	61
4.1.Mehnat faoliyati sharoitining klassifikatsiyasi.....	61
4.2.Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar.....	66
XULOSA.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	73

KIRISH

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida sug'urta tizimini izchil rivojlantirish, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarga yaratilgan kafolatlar tufayli ularning iqtisodiyotimizdagi o'rni va roli tobora oshib bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish jarayonini tegishli bozor infratuzilmasi, ya'ni bank-moliya tizimi, lizing, auditorlik, sug'urta, injiniring va boshqa tuzilmalarni rivojlantirmasdan turib amalga oshirish mumkin emas". Keyingi yillarda mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish va tizimni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda sug'urta xizmati bozorini rivojlantirish, shuningdek aholining keng qatlamlari va xo'jalik subyektlarini sug'urtada ishtiroklarini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari va iste'molchilarga qulay sharoitlar, soliq to'lashda imtiyoz yaratilgan. Sohaga bo'lgan e'tibor tarmoqda faoliyat olib borayotgan kompaniyalar soni o'sib borayotganida ham namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda 30dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat olib borayotgani va aholiga 200 dan ortiq sug'urta xizmatlarini taklif etayotgani bunga yaqqol dalildir.

Sug'urta faoliyati bozor iqtisodiyoti moliyaviy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotning yaxlitlikda barqaror rivojlanishini taominlovchi muhim omillardandir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni o'sishida sug'urta tizimining o'rni va roli beqiyos. Shu nuqtai nazardan sug'urta bozorini rivojlantirish aholi, tadbirkor va ishbilarmonlar uchun turli xildagi xizmat turlarini joriy etish va ulari sodir bo'lish ehtimol bo'lgan zarar va baxtsiz hodisalardan himoyasini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi-O'zbekiston sug'urta bozori va OAJ "ALSKOM" SK faoliyatini tahlil qilish asosida sug'urta bozorini rivojlantirishga

oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun ushbu ishda quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

- Sug'urtaning maqsadi va vazifalarini keng yoritib berish;
- Sug'urta bozorini tashkillashtirishning iqtisodiy zaruratini yoritib berish;
- O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari faoliyatini tahlil qilish;
- OAJ "ALSKOM" SKning faoliyatini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'llarini yoritib berish;
- Sug'urta bozorini rivojlantirishda xorij tajribalarini qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti. O'zbekiston sug'urta bozori tarkibini o'rganish, sug'urta xizmatlari milliy bozori, sug'urta bozoriga samarali yo'llarini o'rganish va mavjud muammolari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti sifatida OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasi olingan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning iqtisodiyot sohasidagi asarlari, iqtisodiyotni isloh qilish, uni faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha Prezidentimiz ma'ruzalari, sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining sug'urta bozorini iqtisodiyot sohasidagi o'rni xususida e'lon qilingan ilmiy maqolalari va monograflari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda dasturiy vazifasini bajardi. Shuningdek tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Sug'urta Nazorati Davlat Inspeksiyasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida ilmiy ish mavzusining dolzarbligi asoslab beriladi, mavzuning ilmiy jihatdan tadqiq etilganlik darajasi aniqlanadi, ilmiy ishning asosiy maqsadi va vazifalari, uslubiy asoslari, ilmiy jihatdan yangiligi, amaliy ahamiyati

belgilangan. Bitiruv malakaviy ishining birinchi qismida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlanishining nazariy va huquqiy asoslari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi qismida O'zbekistonda sug'urta bozorini hozirgi holati ko'rsatkichlari (OAJ "ALSKOM" SK misolida) ko'rsatilgan. Aniq raqamlar va ma'lumotlar asosida sug'urta kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari tarkibi ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi qismida esa O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan.

To'rtinchi bobda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha ilmiy va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga doir muammolar o'rganilgan.

Ishning xulosa qismida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning umumiy bayoni keltirilgan, amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tavsiyalar va takliflar ifodalangan.

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANISHINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Sug'urtaning maqsadi va vazifalari

Sug'urta o'z mohiyati jihatidan faoliyatning alohida sohasidir. Baxtsiz hodisa, tabiiy ofat, ish bilan shug'ullangan kishilarning ehtiyot choralarini ko'rmaganligi va boshqa sabablar tufayli ziyon ko'rilishi mumkin. Bu hilda ziyon ko'rilganda muhofaza qilishning ancha samarali va zarur shakli bor, bu - sug'urtadir. Sug'urta iqtisodiy munosabatlar tarkibiga kiradi hamda maxsus mablag` fondini yaratish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Mazkur mablag` fondidan esa turli voqealar yuz berganda, agar bu voqealar xususida sug'urta shartnomasida o'zaro kelishib olingan bo'lsa, yetkazilgan zararning o'rnini qoplash va ziyon ko'rgan tomonga yordam berish maqsadida foydalaniladi.

Biz sug'urta haqida biron nima deyishdan oldin sug'urtaning o'ziga to'g'ri tarif berib olishimiz zarur, bunda avvalo uning tarixiy kelib chiqishiga nazar tashlash maqsadga muvofiq bo'lardi. Sug'urta jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas xamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi "qo'rquv" ("strax") so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va ijtimoiy xayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishning asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'рни bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor

iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi. Sug'urta ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi. Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan

holatlar, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimoligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda.

3. Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta badalining hajmi esa har bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab obyektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo bo'ladi.

4. Sug'urta zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagina sug'urtalashga tegishli obyektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkoni bo'ladi. Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida amalga oshiriladi, chunki ixtiyoriy sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.

Sug'urta – bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini uning qatnashchilari o'rtasida badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan: Sug'urta deganda yuridik yoki

jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish¹ tushuniladi». Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bilan bevosita bog'langan. Shunday ekan ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatgan tabiiy ofatlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'ta olmaydi. Sug'urta ko'p tarmoqli xo'jaliklarning mol-mulkini saqlashda va tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi. Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish va lokalizatsiya qilish, hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va mustaqillik talablari asosida sug'urta sohasida quyidagi sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Birinchidan, sug'urtani boshqarishda

¹ O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni 2002 y

markazlashgan tartib o'rniga markazlashmagan tartib joriy qilindi. Mustaqil sug'urta tizimi barpo qilindi. Sug'urtani boshqarish respublika miqyosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Ikkinchidan, alohida sug'urta haqida qonun qabul qilinib, unda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi. Uchinchidan, xorijiy mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik qilish kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta kompaniyalari barpo qilindi. Respublika sug'urta tashkilotlari jahon sug'urta tashkilotlari qatoridan joy oldi. To'rtinchidan. Sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi. Xorijiy mamlakatlar mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi. Beshinchidan, sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Korxonalar tomonidan bankdan olingan qarzlarni o'z vaqtida qaytarishga qaratilgan sug'urta faoliyati kengaya borib, u qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi. Oltinchidan, oldingi yillarga nisbatan majburiy sug'urta doirasi qisqarib. Ixtiyoriy sug'urta tadbirlari kengaydi. Qishloq xo'jaligida majburiy sug'urta qayta qurilib, sug'urtalashda kreditning roli kuchaydi. Yettinchidan, sug'urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan indeksatsiya tadbirlari o'tkazildi. Ixtiyoriy shaxsiy sug'urtaning shartlari ko'pchilik hollarda qaytadan ko'rib chiqildi, turar joy, uy-ro'zg'or, qo'shimcha pensiya, tomorqa sug'urtasi va boshqa sug'urta xillari o'zgartirildi va yangilari joriy qilindi. Sakkizinchidan, bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor berilib, sug'urtaning yangi xillarini amalga oshirishga kirishildi. To'qqizinchidan, mustaqillik yillarida javobgarlik sug'urtasining ayrim xillari joriy qilindi, shuningdek garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasi haqida alohida dasturi amallar qabul qilindi. O'ninchidan, sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi. Sug'urta tashkilotlari ham o'z qimmatli qog'ozlarini tarqatish huquqiga ega bo'ldilar va shu asosda aksiyadorlarning huquqlari belgilanib, ularning idora qilish usullari aniqlandi.

Sug'urta munosabatlarining taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Moliya tushunchasi kabi, sug'urta ham yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Sug'urtada zararlarni hududlar bo'yicha va muayyan bir vaqtda taqsimlanishi. Bu sug'urtaning asosiy belgisi bo'lib, hududlar bo'yicha sug'urta fondini sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun katta hudud va ko'plab sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar zarur bo'lishi talab etiladi. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlanishi sug'urta hodisalarini tasodifiy ro'y berish xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqadi. Qator yillar mobaynida favqulodda hodisalar ehtimol ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zahiralarni tashkil etishni talab qiladi. Sug'urta fondlariga jalb etilgan sug'urta mukofotlarini qaytarib berish. Sug'urta mukofotlari sug'urta tarifi asosida aniqlanadi. Sug'urta tarifi ikki qismdan iborat bo'lib, netto-stavka (sug'urta hodisalari ro'y berganda zararlarni qoplashga ishlatiladi) va netto-stavkaga ustamalardir (sug'urta kompaniyasi ishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi). Netto-stavka, asosan, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, majburiy sug'urta turlariga doir sug'urta shartlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Ixtiyoriy sug'urtalashga doir sug'urta tariflarining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Sug'urta fondi mablag'larining, faqat, shu fondni tashkil etishda qatnashgan sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi.

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli lisenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aksionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar davlat organlarining tegishli lisenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urtalanuvchi – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urta kompaniyasidan tegishli vositachilik haqini oladi.

Bozor munosabatlari takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlash, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. Shunday anglanilgan zarurat aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi. Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'i nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhimdir.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivoj topishi jarayonida turli risklarning yuz berishi ehtimoli mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'zida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar sub'ektlarning sug'urta faoliyatiga,

xususan, risklar transferiga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. "Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi". "Shu narsa aniqki, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar... sug'urta tizimisiz samarali ishlash, investisiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas".

Shu o'rinda, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatini yaratish maqsadiga yo'naltirilgan, mulkchilik shakllariga ko'ra, maxsus qayta taqsimlash munosabatlari tizimi mavjudligi iqtisodiyot sub'ektlari ravnaqiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ularning mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda daromad olishlari kabi manfaatlari yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta faoliyatida talab darajasidagi risk transferi shakllanishi va rivojlanishi hamda uni ilmiy asosda o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sub'ektlarining erkinliklari kengayib borayotgan, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ning yangi turlari o'zlashtirilishi sug'urta faoliyatida risk transferining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda.

Sug'urta faoliyatida o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan "xizmat" tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan "xizmat" o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat "va'dani sotadi". Shu nuqtai nazardan xalqaro savdoda unga "ko'rinmaydigan faoliyat"¹ deb ham tasnif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida "polis"² beriladi xolos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra, ko'rishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim hollarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va

rivojlanishi, iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi.

Ma'lumki, sug'urta moliya munosabatlarining bir turidir. Buning daromad manbai sug'urtalangan aholi va xo'jaliklarning pul manbaidan iborat bo'lib, mahsulot qiymati taqsimotida bir qismini sug'urtaga ajratish tufayli pul fondi, sug'urta fondi paydo bo'ladi. Sug'urtalash shu fondni tashkil etish, taqsimlash va ishlatish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urtalash tub mazmuni bilan zararni qoplash maqsadida zarar ehtimoli asosida yuzaga keladi. Sug'urta obyekti xilma-xildir. Shunga ko'ra u ikkiga bo'linishi mumkin: mol-mulk sug'urtasi va ijtimoiy sug'urta. Mol-mulkka boylik turlarini sug'urtalash kirsas, ijtimoiy sug'urtaga hayotiy, turmush xotirjamligi kiradi. Tadbirkorlik xavf-xatarini sug'urtalash ham paydo bo'lib, kengaymoqda.

Ijtimoiy sug'urtaning ahamiyati ortib bormoqda, bunga ajratiladigan pul resurslari ko'paymoqda. Buning uch manbai mavjud: davlat, korxona va tashkilot hamda shaxsiy mablag'lar. Bular jamiyat a'zolarining mehnatga yaroqsiz, o'zini ta'minlay olmaydigan qismlari uchun ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tibbiy sug'urta ham kengaymoqda. Bundan maqsad insonlar sog'lig'ini saqlash bo'lib, pirovardida barchaga minimal tibbiy yordam berishni tashkil etish, sug'urtalanganlarning salomatligini ta'minlash bilan bog'liq harajatlarni qoplashdan iboratdir. Bu sug'urta fondi ham davlat, korxona, firmalarning majburan ajratadigan va fuqarolarning o'z xohishlari bilan ajratadigan pul mablag'laridan tarkib topadi.

Tadbirkorlik sug'urtasi tadbirkorning faoliyatini kafolatlashda ahamiyatlidir. Bunda foydani kam olish yoki olmaslik xavfi, pul tushumining o'z vaqtida bo'lmasligi, savdo-sotiqdagi noxush hodisalar kabilar sug'urtalanadi. Bu sug'urta tadbirkorning ishonch bilan ish boshlashiga yordam qiladi, uni sinish holatidan

asraydi, faoliyatiga dalda bo`ladi.

Sug`urtalar ham oldi-sotdi obyekti bo`lib, o`z bozorlarini tashkil etadi. Sug`urta resurslaridan kapital sifatida keng foydalaniladi, ayniqsa, ishlab chiqarishga keng jalb etishda qo`l keladi.

Sug`urta inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo`ladigan tabiiy ofatlar, favqulotda hodisa va boshka voqealarr natijasida yetkazilgan zarar va talafotlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yuridik va jismoniy shaxslar mablag`lari hisobidan pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan foydalanishda vujudga keladigan moliyaviy munosabatlardan iborat ,deb ta`rif bergan edik.

Umumiy tarzda berilgan bu ta`rif uning mohiyatini to`la ochib berolmaydi, buning uchun sug`urta tushunchasiga iqtisodiy jihatdan yondashish talab qilinadi.

Ma`lumki, sug`urta kategoriyasining iqtisodiy mazmuni uning funksiyalarida ifodalanadi. Funksiya haqida gap borganda ko`pchilik uni vazifa deb tushuntiradi. Vazifani bajarish vaqtinchalik harakterga ega, u bajarilgandan keyin boshkasini bajarishga o`tiladi. Funksiya deganda esa doimiy takrorlanib turadigan vazifalar tushuniladi .Bu vazifalar bajarilgandan keyin kelgusi yili yana takrorlanadi. Sug`urta tushunchasi moliya va kredit tushunchalari bilan bog`langanligi sababli ularning taqsimlash va nazorat funksiyalarini amalga oshirishda sug`urta ishtirok etadi , ya`ni bu funksiyalar sug`urtaning ham funksiyalari qatoriga kiradi. Shu bilan birga, sug`urtaning o`ziga xos quyidagi funksiyalari bor:

- xavf-xatar;
- ogohlantirish;
- investitsiya;
- omonat;
- axborot.

Qadim zamonlardan buyon insoniyat tabiiy ofatlarning favqulodda vayronagarchilik, ulkan zarar keltirish qirralarini, buning ishlab chiqarishga ko`rsatgan ta`sirini boshidan kechirgan. Mahsulot, mablag`, urug`lik, yoqilg`i va moddiy ne`matlardan zaxira hosil qilgan, bu fond xisobidan ofat oqibatlarini

tugatish uchun muhtojlarga yordam bergan. Zilzila, toshqin, yong'in oqibatlarini sug'urtaning ana shu funksiyasi amal qilishi natijasida hosil qilingan fondlar asosida tugatilgan.

Sug'urtaning ogohlantirish funksiyasining mazmuni bu xavf-xatar funksiyasi bilan bog'langan. Irrigatsiya va tabiatni muhofaza qilish kabi tadbirlar ko'p mablag' talab qilgani uchun budjet hisobidan ta'minlanadi. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ogohlantirish xavfini oldini olish tadbirlari sug'urta to'lovlarining umumiy tushumidan ajratma sifatida beriladigan mablag'lar xisobiga qoplanadi. Bu mablag'lardan asosan uch yo'nalishda foydalaniladi:

1).Yong'indan ogohlantirish va yong'inga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirishga.

2).Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini kamayishiga qarshi tadbirlarga.

3).Chorva mollarida uchraydigan kasalliklarning oldini olish va ularni qirilib ketmaslik tadbirlarini bajarishga.

Sug'urtaning ogohlantirish tadbirlariga sarflash uchun ajratiladigan mablag'lar favqulodda zararlarning va uning oqibatlarini kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Sug'urta badallarining yig'ilishi va ular hisobidan zararning qoplanishi bir vaqtda emas, balki turli muddatlarda sodir bo'ladi. Ishlatilmay bo'sh turgan mablag'lar hisobidan zahira fondlari tashkil qilinadi va ularning bo'sh turgan qismidan tijorat maqsadlari uchun foydalaniladi. Masalan, "Intertrans" sug'urta tashkiloti bo'sh turgan mablag'larni aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olib shular hisobidan qo'shimcha daromad oladi, undan foydalanish uchun sanoat chakana savdo sohalari bilan hamkorlik qiladi.

Sug'urtaning investitsiya funksiyasi bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanib, sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradi.

Sug'urtaning omonat funksiyasi omonat kassalarida omonatlarga ma'lum muddatlarda saqlangan davrga nisbatan foiz olish huquqi beriladi. Shaxsiy Sug'urta va uning boshqa xillarida, mulk sug'urtasida sug'urtalangan ma'lum muddatda

badallarni to'laydi, bu badallar sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'ladi. Agar sug'urta davrida biror sug'urta hodisasi ro'y bersa sug'urta tashkiloti yetkazilgan zararni o'z hisobidan qoplaydi, omonat kassalarida esa bunday xususiyatlar mavjud emas.

Sug'urtaning axborot funksiyasi sug'urtaning yangi funksiyasidir. Ilgari, sug'urta monopoliyasi borligida bunday funktsiya mavjud bo'lmagan, chunki faqat davlat sug'urta tashkiloti xukmronlik qilgan. Bu funktsiyaning vujudga kelishiga sabab shundan iboratki, O'zbekiston sug'urta hududida o'nlab yangi sug'urta kompaniyalari, agentliklari, firmalari vujudga keldi, ularning har biri o'ziga xos Sug'urta obyektlari va shartlariga ega bo'ldi. Ko'pchiligi mol-mulkni sug'urta qilish bilan shug'ullanadi, mavjud tibbiyot, transport va boshqa sug'urta kompaniyalari xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Sug'urta faoliyatini rivojlantirish sug'urtalanuvchilarga har bir tashkilot haqida axborot berishni talab qiladi. Buning uchun ma'lumotnomalarni shakllantirishi, o'zlariga ajratilgan xonalarda sug'urta tashkilotlari birgalikda sug'urta bozorini tashkil qilishi lozim.

1.2. Sug'urta bozorini tashkillashtirishning iqtisodiy zarurati

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy hayotida sug'urta faoliyati strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu sohadagi davlat siyosatining mohiyati uning bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy elementi sifatidagi ahamiyati va salmog'ini yanada oshirishdan iborat.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan qator vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning o'zaro uyg'un dastaklari majmui-bozor institutlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustuvorlik berish muhim omillardan biri sanaladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va ishonchli taraqqiyotini ta'minlashda sug'urta faoliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. "Bozor infratuzilmasining eng muhim institutlaridan biri-tadbirkorlarni sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan turli zararlardan himoya qilishga qaratilgan sug'urta faoliyati ham izchil rivojlanib bormoqda". Sug'urta maxsulot

ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish kapital, ishchi kuchi, mahsulot eksporti hamda importi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabilar bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladigan faoliyatlarni risklardan himoyalashga shuningdek u har bir subektning o'z faoliyatini kengaytirishiga investitsiyalarni ishonchli joylashtirishiga, kredit olish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda sug'urta sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'yish uchun qator yangi vazifa va muammolarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, mamalakatimizda bozor infratuzilmasi shakllanib borayotgan hozirgi sharoitda birinchidan yuridek va jismoniy shaxslarning risklardan himoyasini yo'lga qo'yish sug'urtalanuvchilar tomonidan mazkur xizmatni to'laligicha o'zlashtirish uchun uning huquqiy-iqtisodiy asoslarini mukammallashtirish zarurati yuzaga kelganligi; ikkinchidan sug'urtaning tadbirkorlik faoliyati sifatida, tashkiliy-uslubiy shakilllanishi hamda takomillashuvi jarayonining davom etayotganligi; Uchinchidan sug'urta munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning samarali shakllarda amalga oshirilishini yo'lga qo'yish talab etilayotganligi; To'rtinchidan, sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning zarurligi; beshinchidan bu sohaning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va roli iqtisodchi-olimlar tomonidan ilmiy nazariy jihatdan chuqur o'rganilmaganligi bu yo'nalishga izlanishlar tadqiqotlar olib borishni dolzarb qilib qo'ydi. Bozor munosabatlari takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jaryondir. Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlasa, ikkinchi tomondan shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi. Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridek shaxslar manfaatlarini himoya qilish ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimoli bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi.

Shunday anglanilgan zarurat aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta

munosabatlari yuzaga keldi. Sug'urta munosabatlari ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'iy nazar sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jaryonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari murakkab va keng qamrovli moliyaviy pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit mavjudligi ham muhimdir. O'zbekistonda tadbirkorlikning rivoj topishi jaryonida turli risklarning yuz berishi ehtimoli mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'zida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar sub'ektlarning sug'urta faoliyatiga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. "Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

Shu narsa aniqki bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sug'urtasiz samarali ishlash, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas.

1. Shu o'rinda ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da uzluksizliklarni ta'minlash imkoniyatini yartish maqsadida yo'naltirilgan mulkchilik shakllariga ko'ra, maxsus qayta taqsimlash munosabati tizimi mavjudligi iqtisodiyot sub'ektlari ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Bu jarayonda ularning mulkka egalik undan foydalanish hamda daromad olishlari kabi manfaatlari yuzaga chiqadi. Sug'urta faoliyati o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan xizmat tushunchasi fundamental hisoblandi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan xizmat o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, yani u o'z mijoziga faqat va'dani sotadi. Shu nuqtai nazardan unga xalqaro savdoda "ko'rinmaydiga faoliyat" deb ham ta'rif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida polis beriladi xalos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra kelishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim holatlarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayt etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bosqichma-

bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustahkamligi erkinligi darjasini ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi.

Sug'urta moliyaviy ta'minlash vositasi sifatida mijozlarning mol-mulkini risklardan himoyasini kafolatlashi orqali sug'urtalanuvchining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini ta'minlaydi. Sug'urta faoliyatini talab va taklif asosida rivoj topishi, bir tomondan turli mulkchilik shakllaridagi sug'urta tashkilotlarining faoliyat ko'rsatishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yaratsa, ikkinchi tomondan xo'jalik sub'ektlarining mol-mulk hamda daromadlarini kutilmagan turli risklardan himoyasini ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda sug'urtaning tub ma'noda tadbirkorlik faoliyatiga aylanishi uchun quyidagi ma'lum shartlar bajarilishi talab etiladi:

Birinchidan, sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan tashkilot sug'urta xizmatini ko'rsatishi ham raqobatli muhitda muvaffaqiyatli ishlashi uchun ham moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi, filiallar tarmog'ini kengaytirishi;

Ikkinchidan, yuridek va jismoniy shaxslarning sug'urta zaxirasini shakllantirish jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishi, ayni vaqtda ular tomonidan sug'urta xizmatiga talabning ham yuqori bo'lishiga erishishi;

Uchinchidan, turli mulkchilik shaklidagi iqtisodiyot sub'ektlar, xususan, davlat (byudjed mablag'larini jalb etmagan holda) ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonida yuz berishi ehtimoli bo'lgan risklar bo'yicha kutilmagan zarar va yo'qotishlarni qoplash mexanizmi sifatida sug'urta faoliyati rivojlanishidan manfaatdor bo'lishi kabilar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki sug'urtaga bo'lgan talabga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining tabiiy ehtiyojlari sifatida qaramaslik lozim. Bizga ma'lumki, tabiiy ehtiyojlar to'g'ridan-to'g'ri anglaniladi, hamda har bir sub'ekt ularni o'zi uchun namoyon etib, bunday ehtiyojlarini qoniqtirishga harakat qiladi. Sug'urta va uning ijtimoiy iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish shuni ko'rsatmoqdaki, boshqa sub'ektlar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda, ularning ishtiroklari

ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish) jarayonidagi iqtisodiy xususiy va boshqa qator majburiyatlarni o'z zimmalariga oladi. Bu ma'suliyat esa, sub'ektning o'z mulki yoki mulkchilikdagi hissasi bo'yicha ko'rishi ehtimol bo'lgan risk mavjudligidan kelib chiqib, ularning sug'urta faoliyatiga bo'lgan talabini yuzaga keltiradi. Shuningdek iqtisodiy, texnologik, ekalogik va boshqa shart-sharoitlarning murakkablashuvi zahirida qo'shimcha risklar ham namoyon bo'ladi. Sug'urta risklarining hududlarga ko'ra, kengligi davriyligi va xilma-xilligi, shuningdek, ularni oldini olish hamda ko'plab sarf-xarajatlarning o'sib borayotganligi ham sug'urtaning ahamiyatini yanada oshirib unga bo'lgan talabni oshiradi. Aynan shunday talabning mavjudligi sug'urta faoliyati natijasi foydali bo'lishi va uning istiqboldagi rivoji uchun zaruriy shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Sug'urtaning ijtimoiy iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

Sug'urta murakkab va keng qamrovli moliyaviy pullik munosabatlar sifatida tadqiq etildi, hamda bu faoliyat sug'urta fondini yaratish, shuningdek undan foydalanish jarayoni ekanligi asoslandi.

Mamlakatimizda 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi, 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi, 2008 yil 10 sentabrda qabul qilingan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonunlar sug'urta bozorida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni paytda davlatimiz rahbarining 2007 yil 10 aprelda qabul qilingan "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² qarori bilan tasdiqlangan "2007-2010 yillarda O'zbekiston

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov. "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2007 yil

Respublikasi sugʻurta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi”, 2008 yil 21 mayda qabul qilingan “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori sugʻurta faoliyatini yanada takomillashtirish, sugʻurtalovchi tashkilotlarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sugʻurta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini ragʻbatlantirish, shuningdek, sugʻurta xizmatlari isteʼmolchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni taʼminlashda muhim dasturilamal boʻlayotir. Shuningdek, sohaga oid bir qator qonunosti hujjatlar ham qabul qilingan. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 24 iyunda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni toʻlaqonli amalga oshirishni taʼminlash maqsadida qabul qilingan “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi, 2008 yil 24 iyunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishning toʻliq amal qilishini taʼminlash maqsadida qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi, 2008 yil 28 martda oziq-ovqat bugʻdoyining barqaror sugʻurta fondini shakllantirish, davlat resursidagi oziq-ovqat bugʻdoyidan qatʼiy maqsadli foydalanilishini taʼminlash va ichki isteʼmol bozorini himoya qilish maqsadida qabul qilingan “Oziq-ovqat bugʻdoyining sugʻurta fondini gʻamlash, saqlash, yangilash va undan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2002 yil 27 noyabrda sugʻurta tizimini rivojlantirishni ragʻbatlantirish, sugʻurtalovchilarning moddiy-tehnika bazasini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning mintaqaviy vakolatxonalarini kengaytirish va aholining sugʻurta tashkilotlariga boʻlgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida ”gi qarorlari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish

sharoitida sugʻurta bozorini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Senatining 2010 yilning 3-4 dekabr kunlari boʻlib oʻtgan toʻrtinchi yalpi majlisida “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 15 va 18 moddalariga oʻzgartishlar va qoʻshimcha kiritish haqida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni maʼqullandi va 2010 yil 17 dekabrda matbuotda eʼlon qilindi.

“Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 15 va 18-moddalariga kiritilgan oʻzgartishlar va qoʻshimchada quyidagi maqsadlar nazarda tutilgan:

Birinchidan, sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash amaliyotini mustahkamlash hamda sugʻurta tizimini rivojlantirishni ragʻbatlantirish, sugʻurtalovchi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning mintaqaviy vakolatxonalarini kengaytirish va aholining sugʻurta tashkilotlariga boʻlgan ishonchini oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 yil 27 noyabrda qabul qilingan “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori talablari bilan ushbu qonun normalari bir xilda qoʻllanishini taʼminlash. Shu bois “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunning 15-moddasi faqat qayta sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta faoliyatini amalga oshirayotgan sugʻurtalovchining sugʻurta shartnomalarini tuzishga haqli emasligi haqidagi norma³ bilan toʻldirildi;

Ikkinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining “Yuridik shaxsni qayta tashkil etish” deb nomlanuvchi 49-moddasida yuridik shaxsni qayta tashkil etish, yaʼni qoʻshib yuborish, qoʻshib olish, boʻlish, ajratib chiqarish, oʻzgartirish shakllarida uning muassislari (ishtirokchilari) yoki taʼsis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkinligi mustahkamlangan. “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunning 18-moddasi birinchi qismini Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-

³ Oʻzbekiston Respublikasi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni.

moddasi bilan muvofiqlashtirish, ushbu qonunning 18-moddasi oltinchi qismiga qo'shib yuborish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan davr uchun hamda yangidan tuzilgan sug'urtalovchilar litsenziya olguniga qadar bo'lgan davrda ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emasliklari haqidagi norma kiritildi. Shuningdek, mazkur modda "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasi bilan muvofiqlashtirish maqsadida o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilgan sug'urtalovchining litsenziyasi qayta rasmiylashtirilishi haqidagi norma bilan to'ldirildi.

Muxtasar aytganda, mazkur qonunning ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatimizda sug'urta bozorining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab ustav kapitalining eng kam miqdorlari:

- umumiy sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 500 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- hayotni sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 750 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- majburiy sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 1000 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- faqat qayta sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 3000 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma belgilangandir.

Bundan tashqari, sug'urtalovchilarning mijoz oldidagi mas'uliyatini oshirish hamda ularning kapitallashuv darajasini ko'paytirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagi sohalarda faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari o'rnatilgan:

- umumiy sug'urta sohasida – 750 ming yevroga ekvivalent so'mmada;
- hayotni sug'urta qilish sohasida – 1000 ming yevroga ekvivalent so'mmada;
- majburiy sug'urta bo'yicha – 1500 ming yevroga ekvivalent so'mmada;
- faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha – 4000 ming yevroga ekvivalent so'mmada.


“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi qonunning 12-moddasida sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan edi. Hozirgi vaqtda ularning ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari bilan belgilanganligini hisobga olib, 12-moddaga tegishli o'zgartish kiritish bilan ustav fondining eng kam miqdori endilikda qonun hujjatlariga asosan belgilanishi nazarda tutildi.

2.O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI HOZIRGI HOLATI

2.1.O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari faoliyati talili


Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi va shunga ko'ra sug'urta kompaniyalari soni oshib, ular ko'rsatayotgan xizmat turlari ham ko'paymoqda.

Jumladan, 2013 yil 1 yanvar hisobida O'zbekiston respublikasida 33 ta sug'urta kompaniyasi ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bulardan 31 tasi umumiy sug'urta faoliyati bilan shug'ullansa ,2 tasi esa hayotni sug'urta qiladi. 2012 yil hisobotida sug'urta mukofotlari yig'imi 286 mlrd.so'mni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 135% ga o'sgan.2007-2012 yillari vaqt oraligida milliy sug'urta bozori sifati o'zgardi va deyarli 4marta 74 dan 286 mlrd. so'ga oshdi (2.1. rasm).



2.1.- rasm. Sug'urta mukofotlari o'sish hajmi dinamikasi

Barqaror sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatgichi yirik biznes hajmi hisob dinamikasi bo'yicha⁴, davlat hissadorlik sug'urta kompaniyalari (DASK "Kafolat"-141%, "O'zbekinvest"-138%, DASK "O'zagrosug'urta"-136%) va nodavlat sug'urta kompaniyalari("Xalq sug'urta"-277%, "Sug'urta O'z"-253%, "DD General Insurance"-222%, "Asia Inshurans"-149%, "Transinsurance plus"145%) katta implusda rivojlanishni qayd etdi. Davlat va nodavlat kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'sish ko'rsatgichlari. (2.2- rasm)




2.2- rasm. Sug'urta bozorida davlat va nodavlat sug'urta kompaniyalarining hissasining o'zgarish dinamikasi

Davlat hissadorlik kompaniyalari nodavlat sug'urta kompaniyalariga qaraganda past ko'rsatgichlarni qayd etgan. Keyingi yillarda xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilayotgani raqobat muhitini yaratishga muhim omil bo'lib xizmat qildi va sohada yangi xizmat turlari soni ko'payib, xizmat ko'rsatish sifat jihatidan ko'tarildi. Sug'urta bozorida 2007 yil davlat aksionerlik kompaniyalarining hissasi 48% bolsa, 2012 yilga kelib bu korsatgich 40% ga yetdi. 2012 yilda jami birlashtirilgan sug'urta shartnomalarining sug'urta majburiyatlari tarkibi 111.2 trln.so'mga o'sgan. (jami o'tgan yilgan nisbatan 121.2%ga oshgan).


⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Sugurta Nazorati Davlat Inspeksiyasi 2013 y

Majburiy va uzoq muddatli sug'urta turlari ham keying yillarda yuqori ko'rsatgichlarni qayd etdi.(2.3-rasm)



2.3-rasm.Majburiy va uzoq muddatli sug'urta to'lovini o'sish dinamikasi

Umumiy to'lov hajmi 2012yil sug'urta to'lovlari 46 mlrd.so'mdan ko'proq yani 2007 yilga nisbaan 5,8 marta o'sish holatini ko'rsatdi.(2.3-rasm)2007 yil ko'rsatgichlariga solishtirilganda sug'urta majburiyatlari hajmi 3.8%ga ko'tarilgan (2.4-rasm).



2.4-rasm. Sug'urta majburiyatlari tushumi dinamikasi


Keyingi yillarda sug'urtaga bo'lgan talab kuchaygani sari sug'urta majburiyatlari ham shunga mos ravishda oshib bordi. Xususan 2007 yilda sug'urta majburiyati 2012 yildagiga nisbatan taxminan 4 martaga oshib ketdi. 2012 yilda jami birlashtirilgan sug'urta shartnomalarining sug'urta majburiyatlari tarkibi 111.2

trln.so'mga o'sgan. (jami o'tgan yilgan nisbatan 121.2%ga oshgan). 2007 yil ko'rsatgichlariga solishtirilganda sug'urta majburiyatlari hajmi 3.8%ga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab ustav kapitalining eng kam miqdorlari:

- umumiy sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 500 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- hayotni sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 750 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- majburiy sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 1000 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma;
- faqat qayta sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun – 3000 ming AQSH dollariga teng bo'lgan so'mma belgilangandir.

Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilganidan so'ng sug'urta ustav fondining keskin oshishi kuzatildi.(2.5-rasm)



2.5-rasm.Sug'urta ustav fondi hajmining o'sish dinamikasi

Yuqoridagi ko'rsatgichdan ko'rinib turibdiki, 2008 yili sug'urta faoliyatida ustav fondini keskin ravishda ko'tarilganini kuzatishimiz mumkin.

2.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori bo'yicha 2013 yil 9 oylik yakunlari
va 2012 yilning tegishli davri bilan taqqoslama ma'lumot (ming so'm)**

	2012 yil bo'yicha	2013 yil bo'yicha	O'zgarish%
UMUMIY USTAV KAPITALI, undan:	260 856 865.2	287 300 438.8	110.1
ming so'mda	128 736 820.9	145 107 385.4	112.7
ming AQSH dollarida	66 592.8	64 568.6	97.0
SUG'URTA MUKOFOTI, undan:	256 312 631.2	338 483 335.7	132.1
Ixtiyoriy sug'urta	179 014 574.3	235 535 413.9	131.6
Majburiy sug'urta	77 298 056.8	102 947 921.8	133.2
Transport vositasi egalarining FJMS	47 315 036.7	62 197 743.1	131.5
Ish beruvchining FJMS	19 100 665.7	25 189 863.9	131.9
SUG'URTA TO'LOVLARI, ulardan:	43 627 832.0	66 919 812.3	153.4
Ixtiyoriy sug'urta	29 812 299.5	47 835 138.45	160.5
Majburiy sug'urta	13 815 532.5	19 084 673.86	138.1
Transport vositasi egalarining FJMS	6 453 608.4	8 315 854.7	128.9
Ish beruvchining FJMS	5 032 767.7	7 745 228.7	153.9
AMALDAGI SHARTNOMALAR, ulardan:	5 587 720	6 104 284	109.2
Ixtiyoriy sug'urta	4 023 153	4 135 940	102.8
Majburiy sug'urta	1 564 567	1 968 344	125.8
Transport vositasi egalarining FJMS	1 526 158	1 773 784	116.2
Ish beruvchining FJMS	36 565	191 920	524.9
SUG'URTA MAJBURIYATLARI, ulardan:	10 020 312 556.7	16 158 430 426.4	151.0
Ixtiyoriy sug'urta	81 938 862 754	125 880 200 199.6	153.6
Majburiy sug'urta	25 081 449 803	35 700 230 226.9	142.3
Transport vositasi egalarining FJMS	8 599 174 731	11 369 877 992.5	132.2
Ish beruvchining FJMS	12 822 935 783	18 082 791 539.2	141.0

Ushbu jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorining 2013 yil 3 chorak oxirida kel⁵tilgan yakunlari bilan 2012 yil 3 chorakda erishilgan natijlari solishtirilgan, Jadvalda ko'rinib turganidek o'sish ko'rsatkichlari kuzatilgan, umumiy ustav kapitalining dollardagi summasidan tashqari. Umumiy ustav kapitali 10%ga, sug'urta mukofoti 32%ga, sug'urta to'lovlari 53%ga, amaldagi shartnomalar 9%ga, sug'urta majburiyatlari 51 %ga hamda investitsiyalar 10%ga ko'paygan.

⁵ www.UzReport.com

2.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori bo'yicha 2014 yil chorak yakunlari
va 2013 yilning tegishli davri bilan taqqoslama ma'lumot. (ming so'm)**

	2014yil 1chorak	2013 yil 1chorak	O'zgarish%
UMUMIY USTAV KAPITALI, undan:	283 940 470.6	294 561 445.0	103.7
ming so'mda	143 035 536.8	149 379 251.8	104.4
ming AQSH dollarida	69 084.6	64 316.7	93.1
SUG'URTA MUKOFOTI, jumladan:	89 504 245.4	109 000 040.0	121.8
Ixtiyoriy sug'urta	64 251 106.5	74 027 095.0	115.2
Majburiy sug'urta, undan:	25 253 138.9	34 972 945.0	138.5
Transport vositalari egalarining FJMS	16 529 363.1	23 729 440.0	143.6
Ish beruvchining FJMS	4 886 746.0	5 392 015.5	110.3
SUG'URTA QOPLAMALARI, jumladan:	13 546 611.9	12 718 323.3	93.9
Ixtiyoriy sug'urta	8 310 869.0	7 359 108.38	88.5
Majburiy sug'urta, undan:	5 235 752.9	5 359 214.90	102.4
Transport vositalari egalarining FJMS	2 136 883.3	2 479 901.2	116.1
Ish beruvchining FJMS	10113 940.4	2 082 580.5	187.0
AMALDAGI SHARTNOMALAR, jumladan:	6 045 865	5 606 273	92.7
Ixtiyoriy sug'urta	4 475 026	3 787 343	84.6
Majburiy sug'urta, undan:	1 570 839	1 818 930	115.8
Transport vositalari egalarining FJMS	1 529 705	1 706 180	111.5
Ish beruvchining FJMS	38 847	110 003	283.2
SUG'URTA MAJBURIYATLARI, jumladan:	132635 205590.3	152035296 313.4	114.6
Ixtiyoriy sug'urta	104 629 613 867	11418 114 107.5	109.1
Majburiy sug'urta, undan:	28 005 591 723	37 848 182 205.9	135.1
Transport vositalari egalarining FJMS	8 903 466 789	12 084 167 252.7	135.7
Ish beruvchining FJMS	12 658 813 725	17 970 479 708.1	142.0

Yuqoridagi javdalda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2013 yilning tegishli davri 2014 yil chorak yakunlari taqqoslangan. Umuman olganda jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumiy ustav kapitali hajmi 3,7%ga sug'urta mukofotlari hajmi 21,8% sug'urta majburiyatlari ham 14,6%ga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

2.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori bo'yicha 2014 yil 1 chorak yakunlari
va 2013 yilning tegishli davri bilan taqqoslama ma'lumot (ming so'm)**

T/r	Sug'urta tashkilotining nomi	Sug'urta mukofotlari	2013y.ga nisbati (%da)	Sug'urta to'lovlari	2013y.ga nisbati (%da)
1	DASK "O'zagrosug'urta"	21 181 094.8	121.2	2 604 819.9	132.8
2	"Alfa Invest"YoAJ	12 608 899.1	134.8	413 500.9	45.7
3	"O'zbekinvest"EIMSK	12 369 354.8	123.0	2 645 194.3	88.3
4	DASK"Kafolat"	9 343 439.4	121.5	1 408 44.7	84.2
5	"Asia Inshurans" MChJ	8 438 292.7	109.9	366 014.9	81.1
6	"Kapital Sug'urta"OAJ	6 702 114.7	185.1	1 067 411.9	191.7
7	"Ingo-Uzbekistan"SYoAJ	5 731 116.6	281.5	437 818.1	77.9
8	"UVT Inshurans"MChJ	5 185 586.1	99.2	-	-
9	"Alskom"OAJ	5 181 897.0	138.2	515 059.9	205.8
10	"O'zbekinvest Hayot" ShSK	3 085 642.7	140.5	1 580 854.7	127.2
11	"Temiryo'l-Sug'urta"MChJ	3 015 318.3	110.2	109 220.0	51.0
12	"Universal-Sug'urta"YoAJ	1 587 408.2	108.9	77899.8	18.3
13	"Xalq Sug'urta" MChJ	1 580 092.4	125.8	338 799.4	169.7
14	"Gross Insurance"MChJ	1 445 669.1	142.2	29 856.6	80.8
15	"Euroasia Insurance"MChJ	1 370 493.0	193.4	14 674.1	64.2
16	"Agro Invest Sug'urta"OAJ	1 224 763.5	123.7	322 258.0	73.6
17	"IShONCH"BSK	1 199 814.5	80.7	345 795.7	199.8
18	"Garant Insurance Group" ShSK	1 074 539.6	159.4	5 777.8	93.7
19	"Sug'urta O'z"MChJ	849 472.6	77.8	35 204.7	-
20	"Mega Invest Insurance"MChJ	810 921.0	150.1	80 675.3	2 308.4
21	"Kafil sug'urta"MChJ	761 273.7	135.3	7 211.2	108.5
22	"Asko-Vostok"MChJ	740 822.1	108.2	-	-
23	"Global Insurance Group"MChJ	718 908.8	273.5	6 802.4	204.8
24	"Silk Road Insurance"OAJ	700 064.2	152.0	57 948.3	912.6
25	"DD-General Insurance"MChJ	614 441.0	141.3	84 342.2	168.2
26	"Hamkor Sug'urta"MCHJ	482 684.4	118.0	4 614.0	21.9
27	"Alfa life"ShSK	481 193.7	214.0	102 587.0	30.7
28	"Madad" OAJ	286 866.7	107.0	-	-
29	"Unipolis"MCHJ	226 778.0	30.4	55 337.6	116.5
30	"Chartis Uzbekistan"MCHJ QK	1 077.0	0.1	-	-
	Jami:	109 000 040.0	121.8	12 718 323.2	93.9

Yuqorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib boruvchi sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida 2014 yil birinchi choragi yakunlari va 2013 yilning tegishli davri bo'yicha solishtirilgan sug'urta to'lovlari va sugurta mukofotlari hajmi ko'rsatgichlari keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, deyarli barcha sug'urta kompaniyalari ijobiy ko'rsatgichga ega.

2.2. OAJ “ALSKOM” sug'urta kompaniyasining faoliyati tahlili

OAJ “ALSKOM” sug'urta kompaniya 1996-yil sentabr oyida tashkil etilgan va asosiy faoliyati-sug'urtalash, qo'shimcha faoliyati esa investitsion faoliyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi litsenziyasiga ko'ra (CΦN№00164 ot10.01.2012). Kompaniya umumiy sug'urtalashning 12 turidagi 50 ga yaqin majburiy va ixtiyoriy sug'urta xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniyaning 2011 yil yakunida nizom bo'yicha to'langan kapitali 2.4million yevroga teng so'mmani tashkil etadi. Nazorat qiluvchi organlar-tekshiruv komissiyasi, ichki audit xizmati, noqonuniy faoliyatlardan kelgan kirimlarni legalizatsiya qilish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ichki nazorat xizmati.

Kompaniyaning hududiy shaxobchalari: Kompaniya Qoraqalpog'iston Respublikasi va Respublikaning barcha viloyatlarida tarmoqlangan hududiy shaxobchaga ega. Bu shaxobchalar yordami bilan kompaniya butun O'zbekiston bo'ylab sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Kompaniya Reytingi:

«uzA+-eng yuqori moliyaviy ishonch», “SAIPRO” reyting agentligi tomonidan berilgan.

“A-yuqori darajadagi ishonch”, “Prime Rating” reyting agentligi tomonidan berilgan.

-“SAIPRO” reyting agentligi ma'lumotlariga qaraganda kompaniya 2011 yil yakuniga ko'ra, sug'urta mukofotlarini yig'ish hajmi bo'yicha O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining birinchi o'ntaligiga kirdi.

Kompaniyaning jamoaviy mukofotlari:

“O‘zbekistonning yetakchi sug‘urta kompaniyasi” (mukofot uchinchi har yilgi xalqaro investitsion forum doirasida topshirilgan. Toshkent 2008-yil);

“Oltin soyabon” “Sug‘urta faoliyati rivojida yetakchi kompaniyasi.

“Oltin soyabon” “Axborot xavfini sug‘urtalash” sug‘urta maxsuloti uchun “Eng yaxshi innovatsion sug‘urta maxsuloti” nominatsiyasi (mukofot 2 marta 2008-2009 yillar yakunida topshirilgan)

2011-yilda kompaniya sug‘urta faoliyati o‘rishining yuqori templarini ko‘rsatdi.

Tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni 113 mingdan oshdi. Sug‘urta mukofotlari hajmi 9,7mlrd so‘mga yetdi, 2010-yilga qaraganda 138,7 foizga o‘rish bo‘lgan. Sug‘urta majburiyatlarining umumiy hajmi 1,9trln so‘mgacha oshdi.

O‘tgan yildagidan farqli o‘laroq, 2011-yilga sug‘urta majburiyatlarining katta qismi bank sug‘urtasiga to‘g‘ri keldi. (jami sug‘urtaning 28,9%). Bundan tashqari shaxsiy sug‘urtaning sug‘urta majburiyatlari va javobgarlik sug‘urtasi hajmi keskin ortdi. Bu o‘zgarishlar chakana savdoning kuchayganligi va faoliyat turlari kengayganligi haqida guvohlik beradi. Chakana savdoning rivojlanganligi. Kompaniya mijozlar bazasi strukturasigda ham aniq ko‘rinib turibdi. Jismoniy shaxslardan yig‘iladigan sug‘urta mukofotlari ko‘payib, umumiy mukofotning chorak qismig⁶acha yetdi.

Mol-mulk sug‘urtasi kompaniya sug‘urta faoliyatining katta yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda va uning spektri yildan-yilga kengaymoqda. 2011-yilda quyidagi turdagi xizmatlar ko‘rsatildi:

- mol-mulk sug‘urtasi;
- og‘ir narsalar sug‘urtasi;
- agrar xavflar sug‘urtasi;
- elektron texnikalar sug‘urtasi;

⁶ www.alskom.uz

- qurilish montaj sug'urtasi;
- axborot xavfsizligi sug'urtasi.

2011-yilda mol-mulk sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari 3,4 mlrd so'm, 2010-yil natijalari bilan solishtirganda 46,3% o'sishni tashkil etdi. Bu sug'urta turidagi foydalanuvchilarning asosi quyidagilarni o'z ichiga oluvchi korporativ mijozlardir:

Sug'urtaning bu turi bo'yicha sug'urta mukofotlari 2011-yilda asosiy qismini transport vositalari egalaridan olinadigan majburiy fuqorolik javobgarligidan iborat, 2,5 mlrd so'mni tashkil etadi.

Mamlakatdagi sug'urta madaniyatining asta-sekin oshishi va aholining sug'urtaga ishonchi o'sishi kompaniyaga bu yo'nalishdagi xizmatlar spektrini kengayishiga imkon yaratyapti.

2011-yilda quyidagi sug'urta turlari qayta ishlab chiqildi va joriy qilindi:

- temir yo'l suv osti va avtomobil transportlari yo'lovchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

- sport va jismoniy tarbiya bo'yicha ommaviy tadbirlar ishtirokchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

- sanatoriya kurort muassasalarida, dam olish joylarida dam olayotganlarni sug'urtalash;

- oila, bolalar, kelin-kuyovlarni sug'urtalash;

- istirohat bog'lari hududidagi tashrif buyurganlarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

2011-yil shaxsiy sug'urtadagi yig'ilgan sug'urta mukofotlari 2010-yil ko'rsatgichidan 35% ko'p bo'lgan 880,7mln so'mni tashkil etdi.

2011-yilda javobgarlik sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari 2010-yildagidan 17 marta oshib ketgan va 592,2mln.so'mni tashkil etgan.

Shular qatorida quyidagi sug'urta turlari faol realizatsiya qilindi:

- pochta tashkilotlarini qimmatli pochta jo'natmalarini sug'urtalash;
- umumiy fuqoroviy javobgarlikni sug'urtalash;

- shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi xavfidan sug'urtalash;
- turistik faoliyat professional ishtirokchilari javobgarligini sug'urtalash;
- auditor, notarius, baholovchi, sud boshqaruvchilari, bojxona brokerlari va soliq konsultantlari javobgarligini sug'urtalash;

Bank sug'urtasi kompaniya faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu tijorat banklari faoliyatining liberalizatsiyasi va kengayishi bilan tushuntiriladi.

Asosan lizing operatsiyalar o'tkazish, amaliyotga yangi istemol va boshqa kredit turlarini kiritish kuchaytirilyapti. Tarmoqlanib ketgan bank bo'lmagan kredit tashkilotlari va lizing kompaniyalari yuzaga kelyapti, moliya sohasida uning faolligi oshyapti.

Kompaniyaning bank sug'urtasi (bankaccurance) kredit sektoridagi mijozlarning sug'urta xizmatlari bo'yicha talablarini qondirish tipidagi sug'urta xizmatini ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- kreditga garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasi;
- ipoteka sug'urtasi;
- lizing ob'ektlarini sug'urtalash;
- kreditni to'lay olmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini sug'urtalash.

2011-yilda 2,3mlrd.so'm miqdordagi sug'urta mukofotlari yig'ib olindi, o'tgan yilgi bilan solishtirganda 150,5%ni tashkil etdi.

Sug'urta mukofoti strukturasida katta ulushi kreditga garov sifatida olingan mol-mulk sug'urtasi tashkil etdi. (76,3%).

Sug'urta talablarini yo'lga qo'yish.

-sug'urta to'lovlarining asosiy ulushi transport sug'urtasiga to'g'ri keladi. Eng yuqori to'lov koeffisientiga esa shaxsiy sug'urtaga erishildi, va bu asosan ish beruvchilarning javobgarligini majburiy sug'urtalash evaziga amalga oshirildi.

Kompaniyaning hududiy tarmog'i Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyat markazlarida joylashgan 15ta filial tumanlar va olisdagi qishloq joylardagi 40dan oshiq bo'linma va bir qator savdo punktlaridan tashkil topgan. 2011-yilda

mamlakatning turli hududlari, asosan qishloq joylarda 8ta bo'lim qaytadan tashkil etildi.

2011-yil yakunlariga ko'ra hududlardagi sug'urta mukofotlari yig'imi 2010-yil ko'rsatgichlariga qaraganda 37,6% ko'p bo'lgan, 6,9 mlrd.so'mni tashkil etgan. Yana kompaniyada yig'ilgan hududiy filiallarning yig'ilgan sug'urta mukofotlari umumiy hajmidagi ulushi bosqichma-bosqich oshayotganligi kuzatilmoqda. 2011-yilda bu ko'rsatgich 70,8%ga yetdi.

Kompaniyaning investitsion siyosati daromadlilik, diversifikatsiya, chiqimlarni qaytara olish va mablag'ning qadrililik prinsiplariga asosan shakllantiriladi.

2012-yil yanvar holatiga ko'ra kompaniyaning investitsiya qilingan mablag'i 10,6 mlrd.so'mdan ortiqni tashkil qildi. 2010-yil bilan qiyoslaganda 34,5 foizga oshdi. Kompaniyaning investitsion mablag'larining asosiy ulushi ko'chmas mulkka to'g'ri keladi. (45 %).


2011-yilda kompaniyaning asosiy ofisi uchun bino sotib olindi va capital rekonstruksiya qilindi, qoraqalpoq filiali xususiy bino bilan ta'minlandi, Andijon filiali binosi qurilishi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

Kompaniyada ko'smas mulkni shakllantirishga ko'rilgan choralar, realizatsiya qilinadigan mablag'lar, aktivlarning ko'payishiga mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasining oshishiga, qo'shimcha xizmat turlari yaratishga va albatta ijara haqqi uchun to'lovlarning qisqarishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari investitsiyalar tarkibidagi depozit va aksiyalar hajmi keskin ravishda oshib bormoqda.

Kompaniyaning 2011-yildagi umumiy kirimi 7,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib bundan 6,8mlrd.so'mi sug'urta faoliyatiga, 511,5mln.so'mi investitsion faoliyatga, to'g'ri keldi. Kompaniya 622,1mln.so'm miqdorda sof foyda oldi. Kompaniya aktivlari ortishi ham kuzatildi, 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ularning miqdori 10,7mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 14mlrd.gacha oshdi. Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy aktivlarning ko'payishi kompaniyaning uzoq muddatli aktivlarning ko'payishi hisobiga amalga oshdi. Ko'rsatgichlar 2011-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 42,1 %gacha oshib ketdi

2012-yilda yangi sug'urta yo'nalishlarining tashkil etilishi va kengaytirilishi hisobiga sug'urta faoliyatida katta o'sish ko'rsatgichlari kuzatildi.

Umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 2011 yilda 113ming bo'lgan bo'lsa 2012-yilda 148mingga yetdi. Sug'urta mukofotlari yig'imi 2011-yil bilan taqqoslaganda 132%ga o'sdi va 12,8mlrd.so'mni tashkil etdi. Sug'urta majburiyatlarining umumiy qiymati 2011-yil ko'rsatgichlaridan 37,4%ga ko'p bo'lgan 2.6 trln.so'mgacha oshdi. Kompaniyaning sug'urta faoliyati umuman olganda 2010 yilga nisbatan 2012 yil ko'rsatgichlari 2 martadan ko'p oshganligi kuzatilgan.(2.6-rasm)



2.6-rasm. Sugurta faoliyatining asosiy ko'rsatgichlari dinamikasi.

Sug'urta mukofotlari bilan taqqoslaganga sug'urta majburiyatlarining oshganligi kompaniya mijozlarni ularga maqbul sug'urta xizmatlarni ko'rsatib jalb qilayotganligin⁷ing natijasidir.

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta majburiyatlari hajmining oshishiga qaramay ularning umumiy sug'urta majburiyatlaridagi ulushi kamayyapti.


Shu kabi tendensiya umumiy sug'urta mukofotlarida ham kuzatildi.

⁷ www.alskom.uz

2011 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari umumiy hajmining 36% majburiy sug'urta turlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yil yakuniga ko'ra ko'rsatgich 30,6%gacha pasaydi.

Qo'lga kiritilgan natijalarning asosiy omili bo'lib sug'urta faoliyatining keskin diversifikatsiyasi xizmat qildi, kompaniyaning barqarorligi va moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha sotilgan sug'urta majburiyatlari 2010 yilga nisbatan 2012 yilda majburiy sug'urta turiga nisbatan ixtiyoriy sug'urta turi oshganligini kuzatishimiz mumkin.(2.7-rasm)



2.7-rasm. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta turi bo'yicha sotilgan sug'urta majburiyatlari.

Kompaniya ko'rsatiladigan xizmatlar spektri diversifikatsiyasi va kengayishi uchun qilingan ishlar jismoniy shaxslarga chakana xizmat ko'rsatishni faollashtirish imkonini berdi. So'ngi yillarda kompaniyaning mizojlar bazasi strukturasidagi jismoniy shaxslarning umumiy uzluksiz ravishda o'syapti.


2012-yilning e'tiborga molik voqeasi ham sug'urta polislarini pochta bo'limlarining tarmog'ida realizatsiya qilish bo'yicha hamkorlik uchun 21-dekabr "O'zbekiston pochta" MCHJ bilan imzolangan qo'shimcha bitim bo'ldi. Bu bitim:

-Respublika bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish doirasini asosan, qishloq joylardagi ajratilgan aholi punktlarida kengaytirishga;

-Bo'shatib yuborilgan pochta aloqasi xodimlarini informatsion – kommunikatsion texnologiyalar rivojlanganligi bilan ish bilan ta'minlash;

-Pochta sohasidagi kirimlarning saqlanishi va ularning hajmini kengayishi uchun sharoit yaratadi.

Kompaniya faoliyati doirasida ham jismoniy ham yuridek shaxslar bilan sug'urta shartnomalarini amalga oshiradi va yuridek shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar soni ortayotgani aniqlangan,(2.8-rasm)



2.8-rasm.Jismoniy shaxslar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari dinamikasi.

Mol-mulk sug'urtasi kompaniyaga tushgan sug'urta mukofotlarining eng katta qismini tashkil etadi.

2012-yilda bu yo'nalishda 4,3mlrd.so'm sug'urta mukofoti yig'ildi, bu o'tgan yilgi bilan solishtirganda 128,1% ni tashkil etadi.

Kompaniya bu yo'nalishda tarkibida sug'urta bozorida yangi maxsulot hisoblangan axborot xavfini sug'urtalash kabi keng spektrdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi.

Sug'urta tushumlarining katta qismi quyidagi sug'urta xizmatlari hisobiga amalga oshirildi:

- Mol-mulk sug'urtasi;
- elektron texnika va qimmatbaho uskunalar sug'urtasi;
- qurilish-montaj xavfini sug'urtalash;
- yuklarni sug'urtalash;

Sug'urtaning bu turi bo'yicha xizmatlarga asosiy talablar korporativ mijozlar hisoblanadi.


Shular bilan bir qatorda, kompaniya jismoniy shaxslar uchun sug'urta xizmatlarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish ham alohida e'tibor qaratadi.

2012-yilda yangi sug'urta maxsuloti turar joy, uchashtka va fuqaro mulklarining boshqa turlarini sug'urtalashni ishlab chiqdi va joriy qildi.

2012-yilda sug'urta mukofotlarining transport sug'urtasi yo'nalishdagi umumiy miqdori 3,8 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilgiga qaraganda 147,8%ga o'sgan edi, sug'urta majburiyatlarining hajmi 53,4%ga o'sdi. Ko'rsatgichlardagi bu o'sishlarga transport vositalari egalarining fuqaroviy javobgarligini majburiy sug'urtalash, mijozlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, sug'urta polislarini zamonaviy dasturiy maxsulotlar va assistant yordamida rasmiylashtirish hisobiga erishiladi. "Alskom trans servis" kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan.

Kompaniyaning transport bo'yicha majburiy va ixtiyoriy sugurta turi keyingi yillarda sezilarli darajada oshgan.(2.9-rasm). 2012-yilda kompaniya ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi litsenziyasini oldi.

Talabgorlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida tibbiy assistanc xizmatini ko'rsatuvchi "Global Assist" MCHJ bilan hamkorlik o'rnatildi, Ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'lim tashkil etildi. Faoliyat tashkil etilishining birinchi yilidayoq bu xizmatdan 1490 mijoz foydalandi.



2.9-rasm. Transport bo'yicha majburiy va ixtiyoriy sug'urta turini o'sish dinamikasi.

Ixtiyoriy Tibbiy sug'urta doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- Malakali mutahassis-shifokorni uyga chaqirish;
- Tez va zarur tibbiy yordam;
- Ambilatoriya-polkilinika xizmati;
- Statsionar xizmat ko'rsatish;
- Dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- Shoshilinch holatlarda stomatologik xizmat ko'rsatish;
- Vaksinatsiya va disianserizatsiya.

Ixtiyoriy Tibbiy sug'urta bilan bir qatorda, quyidagi shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatildi:

- Individual shaxslar va korxona shaxslarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- Ish beruvchining fuqaroviy javobgarligini majburiy sug'urtalash;
- Temir yo'l, suv osti va mobil transport yo'lovchilarini umumiy foydalanishdagi xavflardan sug'urtalash;

-Pul o'tkazmalarini yuborish va saqlashni amalga oshiruvchi shaxslarning hayoti va sog'ligini sug'urtalash;

-Sport va ommaviy jismoniy tadbirlar ishtirokchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

-Sanatoriya-kurort dam olish uylaridagi dam oluvchilarni sug'urtalash;

-oila bolalar va kelin-kuyovlarni sug'urtalash;

-Istirohat bog'iga tashrif buyuruvchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalar.

2012 yilda shaxsiy sug'urta boshqa yo'nalishlar orasida yangi sug'urta maxsulotlarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish evaziga erishilgan yuqori o'sish darajasi(150%)ga yetdi.

2012 yilda 3,2 mlrd.so'm miqdordagi sug'urta mukofotlari yig'ildi, bu o'tgan yil bilan solishtirganda 136,3% o'sishni ko'rsatdi.

Sug'urta mukofotlari strukturasida asosiy (74,2%) ulushni kredit uchun garovga qo'yilgan mulk sug'urtasi tashkil etdi.

Yetakchi sug'urta turlarini xavfli ishlab chiqarish obektlaridagi avariylar vaqtida atrof-muhit va boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi, mol-mulkiga zarar yetkazganligi uchun javobgarlik sug'urtasi tashkil etdi.

2012 yilda sug'urta talablarini qondirish darajasini 2011-yildagiga qaraganda ikki marta oshdi,amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari jami 1mlrd.so'mga yetdi, to'lovlarning o'rtacha koeffisienti sug'urta to'lovlari bilan sug'urta mukofotlari orasidagi munosabatlari 8,3% gacha yetdi.

2012 yil yakuniyga ko'ra sug'urta mukofotlari 2011 yildagiga qaraganda 48,2% ga oshib, 10,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Bundan tashqari umumiy yig'ilgan sug'urtalarning hajmidagi viloyat filiallarining ulushi bosqichma-bosqich o'sganligi kuzatildi.

2011 yilda viloyatlarning ulushi 70,8%ni tashkil etgan bo'lsa 2012-yilda 79,5%gacha oshdi.

Eng katta solishtirma miqdorlar Toshkent farg'ona Andijon va Buxoro viloyatlari hududlarida joylashgan filiallarga to'g'ri keldi. Ular kompaniya sug'urta tushumining 53,5 %ini tashkil etgan bo'lsa 26% ulushi boshqalarga to'g'ri keldi.

2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra kompaniyaning investitsion mablag'lari 14,2 mlrd.so'mdan ko'pni tashkil etdi. 2011-yil natijalari bilan solishtirganda ularning hajmi 36,8 %ga oshdi. Kompaniya investitsion mablag'larining asosiy qismi (33%) ko'chmas mulkka to'g'ri keldi.

Bugungi kungacha bosh bino bilan birga 11ta viloyatlardagi binolar xususiy binolar bilan ta'minlandi. 2012 yildagi kompaniyaning umumiy tushumi 9,9mlrd.so'm bo'lib shundan 9,3 mlrd.so'mi sug'urta, 595,7mln.so'mini investitsion faoliyatidagi kirimlar tashkil qildi.(2.10-rasm)



2.10-rasm. Investitsiya va sug'urta faoliyatidan kelgan foyda hajmi dinamikasi.

Kompaniya 681.1 mln.so'm miqdordagi sof foyda oldi. Yana kompaniya aktivlarining ko'payishi ham kuzatildi.

2012 yil 01.01 holatiga ko'ra ularning miqdori 14,2mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2013.01.01 holatiga ko'ra 18,7mlrd so'mga yetdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 30 dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat olib borayotgan bo'lsada "ALSKOM" sug'urta kompaniyasi sug'urta bozorida muvaffaqiyatli

faoliyat olib bormoqda.

Kompaniya o'z faoliyati davrida bir qator reytinglarga ega bo'ldi. Shu o'rinda "SAIPRO" axborot-reyting agentligi Kompaniyaning moliyaviy barqarorlik reytingini "uzA+" (juda yuqori moliyaviy barqarorlik) darajasiga ko'tardi. 2013 yilda kompaniya yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Raqamlarda misol keltiradigan bo'lsak o'tgan yilda tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 220 foizga o'sdi. Sug'urta javobgarligining o'sishi esa 166 foizni tashkil etdi. Shuningdek, sug'urta mukofotlari yig'imi 147 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Barcha yig'ilgan sug'urta mukofotlaridan majburiy sug'urtaning ulushi 30 foizni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida aholi o'rtasida ixtiyoriy sug'urtaga bo'layotgan qiziqish hamda ishonchni yanada rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish, shuningdek, aholi ushbu sug'urta turlaridan yanada faol foydalana olishi uchun sug'urta turlarining sifatini, xizmatlarini oshirish lozim.

Kompaniya o'z faoliyati davomida sug'urta davolarini sifatli va tezkor bartaraf etishga alohida etibor qaratib kelmoqda. Xususan, hisobot davrida 1193 ta holatda sug'urta qoplamalari o'z egalariga to'lab berilgan. Ulardan jismoniy shaxslarga 410 ta da'vo, yuridik shaxslarda esa 783 ta davo to'g'ri keladi. 2012 yilga nisbatan mijozlardan sug'urta mukofatlari bo'yicha kelib tushgan arizalar soni 1.9 marotabaga oshdi. To'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi 1.2 marotaba ko'tarildi. To'lab berilgan jami sug'urta qoplamalarida majburiy sug'urta turning ulushi 60 fo⁸zni, ixtiyoriy sug'urta turiniki esa 40 foizni tashkil etadi.

Takidlanganidek, sug'urta davolarini bartaraf etish bu kompaniya va mijoz o'rtasidagi juda muhim holat hisoblanadi. Shu bois kompaniyaning bosh ofisida sug'urta davolarini sifatli va tezkor ravishda bartaraf etish maqsadida sug'urta davolarini bartaraf etish departamenti hamda kompaniya filiali va bo'limalarida sug'urta davolarini bartaraf etish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etilgan. Ushbu bo'limalarga har oy mijozlardan 60 ga yaqin arizalar qabul qilinadi.

⁸ www.alskom.uz

3.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1.O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'lari

Sug'urta mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardandir. Zero, bu tizim aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash va iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda alohida o'rin tutadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Tegishli bozor infratuzilmasini, ya'ni bank-moliya tizimi, lizing, auditorlik, sug'urta, injiniring kabi zamonaviy tuzilmalarni rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish qiyin ekanligi qayd etildi.

Mamlakatimizda sug'urta sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tibor tufayli bu yo'nalishda raqobatbardosh, aholi talabini qondirishga harakat qilayotgan kompaniyalar faoliyati tobora rivojlanmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozori jadal rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning barcha yangi sohalarini qamrab olmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan sug'urta biznesini yuritish bo'yicha xalqaro standartlarga mos keng ko'lamli sug'urta xizmatlarini taqdim etadigan sug'urta tizimini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bunda muhim omil bo'layotir. Sug'urta faoliyatini rivojlantirish, yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda qator qonun va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilayotganligi ham sug'urtaning iqtisodiyotimiz uchun muhim faoliyat ekanligidan darak beradi

Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha 2012 yilgi hisobotida keyingi yillarda sug'urta bozorining yo'nalishlari belgilangan. Mazkur asosiy yo'nalishlar davlat va hukumat rahbarining qarorlari asosida belgilanib, mamlakat YAIM sug'urta xizmatlari ulushi

o'sishini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Shunday qilib, yaqin yillardagi sug'urta bozori rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Sug'urta faoliyati huquqiy bazasini tizimli ravishda rivojlantirish, shuningdek, respublika eksport salohiyatini rag'batlantirish uchun sug'urta imkoniyatlaridan kengroq foydalanish imkoniyatlarini beruvchi eksport sug'urta mexanizmini yo'lga qo'yish hamda iqtisodiyotning bank va sug'urta sektorlarini integratsiyalashdan iborat. Bu jarayon iste'molchilarga taklif etilayotgan moliyaviy xizmatlarni umumlashtiribgina qolmay, balki sektorlarning rivojlanishiga qo'shimcha turtki bera oladi.

2. Ustav kapitali minimal hajmi talablarini bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan sug'urta kompaniyalarining rivojlanishi, xalqaro norma va standartlarga asoslangan faoliyat samaradorligi, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat sohalarining kengaytirilishi, shuningdek, yangi sug'urta mahsulotlari va savdo kanallarining joriy etilishi.

3. Qishloq aholisi hayoti va tibbiy sug'urtalash kabi muhim yo'nalishlarining qishloq joylarga kirib borishini ta'minlash O'zbekistonda sug'urtani rivojlantirishning asosiy yo'nalishidir.

4. Sug'urta bozori mutaxassisleri ishtiroki, ya'ni adjaster, assistans, syurveyer, aktuariy va sug'urtalash xizmatining boshqa vositachilari ishtirokida sug'urta faoliyatini kengaytirish yo'li bilan sug'urta bozori infrastrukturasi institutlarini yanada mustahkamlash.

Shuningdek, hisobotda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta nazorati Davlat inspeksiyasi oldiga qo'yilgan vazifalarni bekamu-ko'st bajarish taraqqiy topgan, zamonaviy, shaffof va raqobatbardosh sug'urta bozorining shakllanishiga hamda mamlakat aholisining sug'urta madaniyatini oshirish va barqaror o'sishiga kafolatli xizmat qiladi.

Sug'urta bozorini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilishiga qaramay, sug'urta va sug'urta xizmatlari hali hamon aholi keng qatlamlariga chuqur kirib borolmayotgani va iqtisodiyotda

yetarlicha o'z o'rniga ega emasligi barchamizga sir emas. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni o'sishida sug'urta tizimining o'rnini va roli beqiyos. Shu nuqtai nazardan sug'urta bozorini rivojlantirish aholi, tadbirkor va ishbilarmonlar uchun turli xildagi xizmat turlarini joriy etish va ularni sodir bo'lish ehtimol bo'lgan zarar va baxtsiz hodisalardan himoyasini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Yuqoridagi tahlil natijalari va sug'urta bozorini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolarni o'ganib chiqib, quyidagi taklif va mulohazalarni amalda joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin:

- sug'urta faoliyatida marketing xizmatidan samarali foydalanish xususan, eng yaxshi reklamani yo'lga qo'yish, servis xizmatlaridan foydalanish, mijozlar bilan ishlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni eng qulay va samarali usullarini yo'lga qo'yish;

- sug'urta faoliyati davomida sug'urta davolarini sifatli va tezkor bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish, sug'urta davolarini bartaraf etish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etish;

- sug'urta madaniyatini oshirish maqsadida konferinsiyalar o'tkazish, mijozlar qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi strategik rejalar tuzish va joriy qilish;

- sug'urta bozorini takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanish.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalda joriy etish sug'urta bozorini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi va mamlakat iqtisodiyoti sug'urta bozorini o'rnini va rolini kuchaytiradi deb aytishimiz mumkin.

3.2. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash turining jahon tajribasi

Ayrim davlatlar iqtisodchilarining majburiy sug'urta umuman sug'urta faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkinligi to'g'risida fikrlar bildirishadi. Ammo har doim ham bunday emas, misol uchun Italiyaning sug'urta

bozori aynan transport vositalari egalarining majburiy sug'urtalashni joriy etishdan boshlangan. Majburiy sug'urta orqali tajriba va moliyaviy quvvat olgan kompaniyalar aktiv ravishda ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta turlarini kengaytirishdi va bugungi kungacha italiya sug'urta bozorida yuqori pog'onalarni egallab kelishmoqda.

MDH mamlakatlari sug'urta tizimi o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega: bozordagi ulushning va aholi daromadining yuqori emasligi, past darajadagi sug'urta madaniyati, qonunchilik bazasining takomillashmaganligi va boshq. Bundan tashqari bir qator mamlakatlar sug'urta kompaniyalari ma'lumotlarining ochiq emasligi va soliqjamg'armasi sxemasi darajasining yuqoriligi bilan ham xususiyatlanadilar. Lekin ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Rossiya va Ukrainada soliqjamg'armasi sxemasiga qarshi olib borilgan islohatlar o'z natijasini berdi: umumiy sug'urta mukofotlarida jismoniy shaxslar ulushi ko'paymoqda. Shu bilan birgalikda MDHning ko'pgina sug'urta kompaniyalarining aktivlari va ustav kapitallarining oshishi ham ijobiy holat hisoblanadi. Ayrim MDH mamalakatlarining transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bozori bilan tanishib chiqamiz.

Rossiyada "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" Qonuni 2003 yil 1 iyulda kuchga kirgan. 2007 yilda avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha 157 sug'urta kompaniyalar faoliyat ko'rsatib ulardan eng yetakchilari: "Rosgosstrax" tizimining guruh kompaniyalari, "RESO-Garantiya", OSAO "Ingosstrax", "ROSNO", "Straxovoy dom v sug'urta kompaniya" yig'ilgan jami sug'urta mukofotining 46-49% to'g'ri keladi. 2007 yil 9 oyida sug'urta kompaniyalar tomonidan avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari (52.753 mlrd. rubl) o'tgan davrga nisbatan 19,6%ga, sug'urta to'lovlari (29,128 mlrd. rubl) esa 29,0 %ga o'sdi. Sug'urta to'lovlarining sug'urta mukofotlariga nisbati 55,2% darajasida bo'ldi. Ushbu davrda sotilgan sug'urta polislari soni 25,2 mln (2006y. 9 oyiga nisbatan 11,5% ga ko'p)tani, sug'urta hodisa to'g'risidagi kelib tushgan arizalar soni - 1,255 mln.tani

va bartaraf etilgan da'vo soni - 1,208 mln.tani tashkil etdi. Sug'urta to'lovlari hajmi 27,7 mlrd rubl b-b, o'tgan y.ga nisbatan 24,5%ga ko'pdir. To'lov darajasi 54,7% (2006y 9 oiyda 49%)ni tashkil etdi. Aytish lozimki majburiy sug'urta turi bo'yicha to'plangan jami sug'urta mukofotlarining asosiy qismi 77,1% Rossiya hudud (region)lariga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birgalikda sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarning zararlilik darajasini kuzatib borish ham muhim ahamiyatga ega. Rossiyada avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha sug'urta kompaniyalarning xavfsiz faoliyati uchun zararlilik darajasi 77% (10-77%) va ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta portfelining yarmidan ko'p bo'lmagan qismidan iborat bo'lishi ko'zda tutilgan.

Rossiyaning 7 ta hududida ushbu ko'rsatgich 70%, 22 hududida 60% bo'lsa, boshqa 8 ta hududida (Yakutiya -81,4%, Vologodsug'urta kompaniyaaya 78,4, Resp Altay- 74,9%, Murmansug'urta kompaniyaaya obl 74,0%, Severnaya Osetiya - 73,5%, Resp Ingushetiya 66,8%, Tombovsug'urta kompaniyaaya obl -66,2, Kemerovsug'urta kompaniyaga obl 67%) zararlilik darajasi o'ta xavfli holatda. Bugungi kunga qadar Rossiyaning "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" qonuniga bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Kiritilayotgan qo'shimchalar sug'urta kompaniyalardan bir qancha tashkiliy ishlarni va moliyaviy qo'yilmalarni talab etmoqda. So'nggi o'zgartirishlar 2008 yil 01 martdan kuchga kirib, unga muvofiq o'tgan yilning

1 iyulidan avtofuqarolik javobgarli sug'urtasi bo'yicha yetkazilgan zararni to'g'ridan to'g'ri bartaraf etish tizimi kuchga kiradi. Rossiya xaydovchilari o'z xoxishiga ko'ra avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta qoplamasi uchun o'zining sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishi mumkin.

Zararni to'g'ridan to'g'ri bartaraf etish jarayoni albatta sug'urta bozori ishtirokchilari uchun oson kechmasligi aniq, chunki jabrlanuvchi aybdorning sug'urta kompaniyasiga emas balki o'zining sug'urtalovchisiga murojaat qiladi. Bu hol hodisaning tezkor bartaraf etilishi va xizmat ko'rsatish darajasining

yaxshilanishiga olib keladi, ammo bunday holat sug'urta firibgarligining kuchayib ketishiga ham asos bo'lishi aniq.

Bugungi kunda Rossiyada sug'urta qoplamalarining 15% firibgarlarning hisobiga to'g'ri kelmoqda. Rossiyaliklarni so'roq qilish natijasida ularning 28% sug'urta kompaniyalarni aldashni jinoyat o'rnida ko'rmasliklarini bildirishgan. Bunday holatlarni oldini olish uchun sug'urta kompaniyalar sug'urta hodisalarini bartaraf etish texnologiyasini takomillashtirilishi (call centre, avariya komissarlari, operativ maslahat) ko'zda tutilmoqda. Yana bir usul bu markazlashgan ma'lumotlar bazasini yaratish, bonus malus koeffitsientini qo'llash, sug'urtalanuvchilar tarixini shakllantirish hisoblanadi.

1 dekabrda YTH (yo'l transport hodisasi) vaqtidagi hujjatlashtirish jarayoni osonlashtirildi (evropa protokoli). YTH ishtirokchilari quyidagi shartlar bajarilgan holda hodisani o'zaro DANsiz rasmiylashtirishlari mumkin:

Insonlarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetmaganligi;

YTHda 2 tadan ortiq bo'lmagan mashinalarning ishtiroki;

YTH ishtirokchilarining mulkga yetkazilgan zarar 25 ming rubldan oshmasligiga o'zaro roziligi;

Ikki ishtirokchi ham ular tomonidan YTH to'g'risida tayyorlangan ogohlantirishda mashinalarning joylashishi to'g'ri belgilanganligiga roziligi.

Ilgarigi qonunda har bir jabrlanuvchining sog'lig'i va hayoti yetkazilgan zararining yuqori chegarasi 160 ming rubl, ammo barcha jabrlanuvchilarga 240 ming rubldan ko'p bo'lmagan miqdorida bo'lgan bo'lsa, yangi qonunchilik b'cha yuqori chegara bekor qilinib, jabrlanuvchining o'limi holatida to'lanadigan kafolatlangan 160 ming rubl o'rnatildi, ulardan 135 ming rubl qarindoshlari, qolgan 25 ming rubl ko'mish marosimlariga o'rnatilgan.

Avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi rivojlanishi bilan sug'urta kompaniyalarning zimmasiga tushayotgan sug'urta qoplamalari hajmi ham oshib bormoqda. Bu albatta katta bo'lmagan sug'urta kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi ta'sir etmasligi mumkin emas.

Avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi amal qilishi davri ichida Rossiya sug'urta bozorini 15 tadan ortiq sug'urta kompaniyalar tark etdi.

2005 yilda Rossiyada agentlarga sug'urta mukofotlarini yuqori to'layotgan va faqat avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi hisobidan yashovchi sug'urta kompaniyalari soni ko'payib ketdi. Ushbu holat ayrim sug'urta kompaniyalari lisenziyalarini qaytarib olinishiga, ayrimlarining esa bonkrotlikka uchrashiga olib keldi. 2006 ga qadar RF ning "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" Qonuni faqatgina sug'urta kompaniyalarning bankrotlik holatidagi kompensasiya to'lovini nazarda tutgan edi, ammo 2007 yil sentyabr oyidan Rosiia avtosug'urtalovchilar ittifoqi (RAT) lisenzisi qaytarib olingan kompaniyalar uchun ham sug'urta to'lovini amalga oishrishni boshladi. RATda 2 ta fond mavjud bo'lib: kafolat rezervi (1%) va joriy kompensasion to'lovlar(2%), ular sug'urta kompaniyalarning brutto mukofotidan olinadigan chegirmalardan shakllanadi. Kafolat rezervi - sug'urta kompaniyaning bankrot yoki lisenziyasi qaytarib olinishi holatida jabralanuvchining hayoti - sog'lig'i va mulkiga yetkazilgan zararni qoplash, joriy kompensasion to'lov esa zarar yetkazuvchi shaxs noma'lum bo'lgan yoki aybdor shaxsda avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi polisi mavjud bo'lmagan taqdirda jabralanuvchining hayoti va sog'lig'i yetkazilgan zararni qoplash uchun mo'ljallangan.

2007 yil 9 oyida RAT lisenziyasi qaytarib olingan sug'urta kompaniya polislari bo'yicha 500 ming rubl sug'urta qoplamasini to'lab berdi. RAT tomonidan to'langan kompensatsiya to'lovining o'rtacha miqdori 37,5 ming rublni tashkil etdi.

Ukraina sug'urta bozori oxirgi yillardagi rivojlanish tempiga qaramasdan hamon sug'urta bozori kam rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirmoqda. Ukrainada 10%dan yuqori bo'lgan risug'urta kompaniyalar sug'urtalangan.

Eng rivojlangan sug'urta klassi bu ixtiyoriy mulk sug'urtasi hisoblanib, umumiy sug'urta tushumlaridagi ulushi 80%ni tashkil etadi.

2012 yil 1 yanvaridan Ukrainada "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" qonuni kuchga kirdi.

Majburiy avtofuqarolik javobgarligi Ukrainada 1996 yil Sug'urta to'g'risidagi qonunchiligi bilan belgilangan edi. Ammo xaydovchida polisining yo'qligi uchun hech qanday jarima ko'zda tutilmagan. Ukrainada sotilayotgan avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi polislari jami ro'yxatdan o'tgan avtomashinalarning 15%nigina takshil etadi.

Rasmiy statistikaga ko'ra Ukrainada xar yili 50 ming YTH yuz berib, haqiqatda ushbu ko'rsatgich 200 mingtaga yetadi. O'rtacha avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi polisning bazaviy narxi Ukrainada 55-60\$ga to'g'ri keladi, 1 guruh nogironlari, urush qatnashchilariga bepul, 2 guruh nogironlari va nafaqaxo'rlarga 50% lik chegirma qo'llaniladi.

2012 yil 01 yanvaridan Ukraina avtoinspektorlari IIB buyrug'iga muvofiq har qanday atotrasnport egalaridan avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi polislarni taqdim etishlarini talab qilishlari mumkin. Polis taqdim etilmagan holatda esa 3\$ miqdoridagi jarima o'rnatilgan.

2011 yilda Ukraina avtosug'urtalovchilari tomonidan agressiv demping va avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi limitlarini ko'paytirish hollari kuzatildi. Ayrim sug'urta kompaniyalar iste'molchilarga polislarni KASKO haridi vaqtida bonus sifatida harid qilmoqdalar. Ushbu holat Ukraina sug'urta tashkilotlari Ligasini xavotirlanishiga olib keldi, chunki avtokredit sug'urtasi rivojlanishi jarayonida ko'pgina sug'urta tashkilotlari portfelining katta qismini atotrasnport risug'urta kompaniyalari egallashi ularning zaiflashishining sababiga aylanishi aniq edi. Ukrainaning Davlat moliya xizmati sug'urta bozorini samarali nazorat qila olmayotganligi sababli Liga Davlat moliya xizmatidan sug'urtalovchilar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini oshkora etishini taklif etdi, ammo u qondirilmaganligi sababli Liga sug'urta kompaniyalar tomonidan ixtiyoriy ravishda Ligaga taqdim etiladigan jadvalni ishlab chiqishga qaror qildi. Bundan tashqari Liga Davlat moliya xizmati tarkibida o'zining qo'mita a'zolaridan iborat avtotsug'urta bozorini nazorat qiluvchi ishchi guruhini tashkil qilish tashshabusini bildirmoqda.

Belarussiya sug'urta bozori rivojlanishi o'ta sust kechmoqda, jami sug'urta badallarining mamlakat YAImdagi ulushi 0,8% atrofida, sug'urta bozori qamrovi ham past darajada-5 % sug'urta kompaniyalargina sug'urtalangan.

Sug'urta bozorida turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning huquqlari tengmasligi sababli to'liq talabga javob beradigan bozor munosabatlari mavjud emas. Shunday tarzda, sug'urta bozorining asosi hisoblanmish majburiy sug'urtani faqatgina davlat sug'urta kompaniyalari amalga oshira oladilar. Shuning uchun ham sug'urta bozorining asosiy ulushi 60 % "Belgosstrax" davlat sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladi.

2011 yilning yarim yilligida mamlakat sug'urta kompaniyalari tomonidan 308,861 mlrd rubl sug'urta mukofoti to'plangan bo'lib, ulardan 21,6 % avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasiga to'g'ri keladi.

Yaqin kelajakda Belorussiya yana bir qator majburiy sug'urta turlarini joriy etishni rejalashtirmoqda. Ammo ixtiyoriy sug'urtani rivojlantirishga hali kutilayotgani yo'q. Belorussiyada sug'urta harajatlari tannarxga olib borilishi tufayli korxonalar tomonidan sug'uratga etibori yuqori emas.

Bundan tashqari mamlakat hududiga horijiy sug'urtalovchilar kirishiga va faoliyat yuritishiga cheklovlar mavjud.

Bugunda Moldovaning sug'urta bozorida 30 tadan ortiq sug'urta kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. sug'urta kompaniyalar sug'urta portfelining 30 %dan ortiqroq qismini ixtiyoriy fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, huddi shunchaga yaqin ixtiyoriy mulk sug'urtasi, 10% dan ko'proq shaxsiy sug'urta turi egaallagan.

Majburiy sug'urtaning sug'urta portfelidagi ulushi esa 20%dan ortiqroq Moldovaning hozirdagi qonunchilik aktlari sug'urta sohasini tartibga solishga deyarli e'tibor qaratmagan. Avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash haqida esa amaldagi "Sug'urta to'g'risida"gi qonunining bir qismida aytib o'tilgan bo'lib, mahalliy sug'urtalovchilar ana shu me'yor asosida ishlamoqdalar.

Gruziyada sug'urta faoliyati kam rivojlangan bo'lib, jami to'plangan sug'urta badallari ixtiyoriy mulk sug'urtasi ulushiga to'g'ri keladi – 25-30%.

Gruziyada avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash Sobiq soyuz davlatlari ichida birinchilardan bo'lib 1997 yilda paydo bo'lgan. U yerda ham O'zbekiston singari avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash polislari avtotransportlar texnik ko'rikdan o'tayotganda taqdim etilishi tartibi o'rnatilgan. Ushbu tartib yo'ldagi xavfsizlikni yaratish va sug'urta bozorini rivojlantirish maqsadida yo'lga qo'yilgan edi. Ammo haqiqatda esa avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash Gruziyada korrupsiya va poraxo'rlikning rivojlanishiga olib keldi. Ushbu sug'urta turining mamlakatda rivojlangan davri 1999 yil bo'lgan bo'lsa, 2009 yilga kelib sug'urta mukofotlari hajmi 1998 yilga nisbatan 75%ga tushgan, sug'urta to'lovlari hajmi esa 4,5 martaga oshib ketgan. Bu holat avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash turining sug'urta kompaniya o'zgarishiga va ayrim avtoto'lovlar uchun umuman bekor qilinishiga olib keldi. Ya'ni 2007 yilning sentyabridan 2011 yilning yanvarigacha Gruziyada o'z avtofuqarolik javobgarliklarini taksi, 3 tonnadan yuqori yuk mashinalari va xalqaro yuk tashuvchi avtotrasnportlardan tashqari faqatgina jamoa transporti egalari sug'urtab keldi. Bugunda majburiy sug'urtaning ushbu turi bo'yicha Gruziyada yana islohotlar olib borilmoqda.

Armaniston sug'urta bozori MDH mamlakatlari ichida eng sust rivojlangani hisoblanadi. Jami to'plangan sug'urta badallarining YAIMdagi ulushi 0,2 % atrofida. Hozirda Armanistonda faqatgina ixtiyoriy sug'urta turi mavjud. Hozirda mamlakat sug'urta bozirini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida sug'urta faoliyatiga bog'liq qonunchilik bazasini islohatlashtirishi yo'lida amaliy ishlar olib bormoqda: sug'urta to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda, sug'urta kompaniyalar ustav fondining eng kam miqdoriga qo'yilgan talablar kuchaytirilmoqda.

Azerbaydjon sug'urta bozori o'zining qo'shni hududlari bo'lmish Armaniston va Gruziyani oldinlab o'tib, so'nggi paytlarda barqaror rivojlanmoqda, jami to'plangan sug'urta badallarining mamlakat YAIMdagi ulushi ortib bormoqda. Ixtiyoriy sug'urtaning sug'urta badallaridagi ulushi 90-95% atrofida. Respublikada

majburiy sug'urtaning 9ta turi mavjud, jumladan avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash.

Qozog'iston sug'urta bozori eng dinamik rivojlanuvchi hisoblanib, so'nggi yillarda sug'urta bozori ko'rsatkichlari bir necha barobarga oshdi. Bundan tashqari sug'urtalovchilar aktivlarining(pul mablag'lari, bank qo'yilmalari, qimmatbaho qog'ozlari) sifati yaxshilandi.

2007 yilning 11 oyida Qozog'iston sug'urta kompaniyalari o'tgan davrga nisbatan 22,3%ga ko'p sug'urta badallarini to'pladilar (133 mlrd.601,1 mln tenge). Jumladan majburiy sug'urta ham 10,2%ga ko'payib 18 mlrd 130,2 mln tengeni tashkil etdi. Sug'urta to'lovlari 3,7 martaga oshgan (43 mlrd 18,6 mln tenge), jumaldan majburiy sug'urta bo'yicha 20,3% ko'paygan (5 mlrd 158,2 mln tenge).

Qozog'iston sug'urta bozorida 41 sug'urta kompaniyalar mavjud bo'lib, ulardan 28 tasida avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalashga lisenziyasi mavjud. Bundan tashqari 7 ta hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalar, 14 ta brokerlik va 43 ta aktuariy kompaniyalari faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.

Bugungi kunda Qozog'istonda majburiy sug'urtaning 9 ta turi mavjud bo'lib eng ommaviylashgani bu avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash hisoblanadi. Ushbu sug'urta turi mamlakatda 1996 yildan amalga oshiril kelinishiga qaramasdan avtosug'urtalovchilar o'rtasida bu turga raqobat o'ta past. Ko'pgina sug'urta kompaniyalari esa zararlilik darajasi yuqoriligi tufayli avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi shartnomalarini rasmiylashtirishdan bosh tortadilar. Hozirda Qozog'istonning 28 sug'urta kompaniyalarida avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi b-n shug'ullanishga lisenziyalari mavjud. 2007 yilning 9 oyi yakuni bo'yicha avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari 43,6 mln \$ga yetgan.

Litvaning 2004 yilning may oyidan Yevroittifoqqa e'zo bo'lishi b-n ko'pgina qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritildi va asosiy voqea sug'urta kompaniyalarning xorijiy investorlar tomonidan sotib olinishi bo'ldi.

2002 yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash qonuni qabul qilinishi bilan sug'urta mukofoti hajmi sezilarli ravishda oshdi. Avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasi jami majburiy sug'urta turining 30%ini tashkil etadi.

(2005y. yarim yilligida avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha 60,164mln \$ sug'urta badallari yig'ilgan, ya'ni jami to'plangan sug'urta badallaridan (151 mln\$) 39,8%. Kasug'urta kompaniyao bo'yicha 39,77 mln doll - 26, 3%, mulk sug'urtasi - 14,3%, boshqa sug'urta turilari 20%). Yuqorida keltirilgan mamlakatlarni tajribasini yuqori darajada o'rganib chiqib, bu tajribalardan oqilona foydalanish mamlakatimiz sug'urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Xozirgi zamon ishlab chiqarishdagi jarayonlarni bajarishda ko‘plab mashina va uskunalar ishlatiladi. Ularga alohida–alohida xavfsizlik talablari ishlab chiqarilgan.

Xalq xo‘jaligining texnik jixatdan takomillashtirish, mexanizasiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlar bilan ta‘minlash, yangi turdagi energiyalardan foydalanish, qishloq xo‘jaligini kimyoviy mineral o‘g‘itlar bilan ta‘minlash va boshqa mehnat tizimida ham sifat ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishini ta‘minlash kerak. Inson mehnat faoliyati jarayonida salomatlikka yomon ta‘sir ko‘rsatadigan faktorlarga duch keladi, ushbu faktorlarni insonga ta‘sir darajasini baholash maqsadida chegaradagi ruxsat etilgan daraja yoki aralashma tushunchasi kiritilgan. Bu daraja miqdori yuqori bo‘lsa, odam organizmida faoliyat vujudga keladi va kasb kasalligiga uchraydi. Shunday qilib, hayot faoliyat xavfsizligi fani barcha qonunlashtiruvchi aktlar, ijtimoiy-iqtisodiy, tadbirlar tizimi bo‘lib insonni ishga qobiliyatligini, sog‘ligini va xavfsizligini ta‘minlaydi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi–inson faoliyatining barcha jabhalaridagi xavfli va zararli omillardan tortib inson himoyasi muhofazasi nazariyasi va amaliyotini o‘z ichiga oluvchi ilmiy bilimlar sohasi sanaladi.

4.1 .Mehnat faoliyati sharoitining klassifikatsiyasi

So‘nggi 10 yillikda mamlakatning xo‘jalik yuritish kompleksida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, yangi mehnat faoliyatlari paydo bo‘ldi. Bundan tashqari bozor iqtisodiyotiga o‘tish islohoti norentabel yoki zarar bilan ishlovchi korxonalarni qisqarishiga yoki butunlay yopilishiga olib keldi. Yangi, turli mulk shaklidagi korxonalar, fermer xo‘jaliklari tashkil topmoqda. Ularning iqtisodiy ahvoli ham turlichadir. Shu sababli ularning barchasida ham ishchilarga normal faoliyat ko‘rsatishi uchun mehnat muhofazasi qonunlariga mos ish joylari yaratib berilgan deyish qiyin. Mehnat faoliyati sharoiti quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1)qulay;

2)uncha katta bo'lmagan hajmdagi ishlab chiqarish zararlari ko'rinishidagi qisman murakkabliklar bilan;

3)murakkab-ishlab chiqarishdagi zararlarning o'rtachhajmi bilan;

4)o'ta murakkab ishlab chiqarish zararlarining absalyut maksimal hajmi bilan.

Mehnat faoliyatini og'irligi va kuchlanganligini baholash

Ma'lumki jismoniy mehnat qo'llaniladigan mehnat faoliyati ko'proq sanoat va qishloq xo'jalik korxonalariga aloqador bo'lib, ayniqsa mehnat jarayonlarida kam mexanizasiyalashgan, kam avtomatlashtirilganlarga taalluqlidir. Jismoniy mehnat qo'llaniladigan mehnat faoliyatlarini baholashning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1)yengil jismoniy mehnat (og'ir yuk ko'tarmaydigan) ishchilarni 2000 dan 2500 kkal gacha energiya sarflashini xarakterlaydi (oziq-ovqat, yengilsanoat, iqtisodning elektronika sohalaridagi konveyer tarmoqlaridagi ishlar);

2)25 kkgacha yuk ko'tarish bilan davom etadigan va 2500 dan 3000 kkal gacha energiya sarflanadigan o'rtacha og'irlikdagi jismoniy mehnat (kichik og'irlikdagi va kichik o'lchamdagi elektrotexnik, mashina sozlik detallari chiqariladigan metallarga ishlov berish ishlab chiqarishi);

3)har zamonda25 kg dan ortiq yukni ko'tarishiga to'g'ri keladigan, bir qator zararlar mavjud bo'lgan og'ir jismoniy mehnat (shovqin, titrashlar, changlar, ximiyaviy va oksik moddalar, ishchi zonadagi havoning yuqori nisbiy namligi, yuqori harorat va shu kabilar);

4) Ishchi kun davomida ko'p bora 15 kg dan ortiq yukni ko'tarishga to'g'ri keladigan va ishchi organizmidan 6000 kkal va undan ortiq energiya sarf bo'lishiga olib keladigan juda og'ir jismoniy mehnat.

Qator ishlab chiqarish zararlarini ajralishi bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy mehnatda yuqorida qayd qilingan murakkabliklarni keltirib chiqaradigan korxonalar: qurilish materiallari ishlab chiqaradigan; metallarga ishlovberish; metallurgiya; transport mashinasozligi; har xil uskunalarni katta bo'laklarini

yigʻadigan mexanik sexlarda-temirchilik, presslash sexlari va boshqalar misol boʻladi.

Mehnat muhofazasiga oʻqitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish boʻyicha namunaviy nizomda (№ 272, 14.08.1996) barcha korxona, tashkilot, muassasa, institut, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, birlashma, assotsiatsiya, korpoorasiya, xolding, tarmoq, vazirlik va boshqa mulk shaklidan qatʻiy nazar malaka talablari hajmida ishchilar, rahbarlar, mutaxassislar, muhandis-texnik xodimlar uchun mehnat muhofazasidan bilimlarni majburiy nazorat qilish tartibi belgilangan.

Korxonaga ishga kirayotgan har bir xodimga xavfli ish usullari boʻyicha yoʻriqnoma, maxsus malaka olgandan va bilimi tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga roʻxsat beriladi. Bugʻ va issiqlik qozonlari, yuk koʻtarish kranlari, bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr uskunalari, maxsus uskunalar kabi xavfli ishlarda ishlovchilarga maxsus oʻquv kurslarini bitirganlari xaqida hujjatlari boʻlsagina ishlashga ruxsat beriladi. Xodimlarni xavfsiz ish usullariga oʻqitish va ularni toʻgʻri tashkil qilish boʻyicha umumiy rahbarlik hamda javobgarlik korxona rahbarlariga va boshqaruv tashkilotlariga yuklanadi. Sexlarda, boʻlimlarda ishchilarni va ustalarni xavfsiz ish usullariga oʻrgatish shu sex hamda boʻlim rahbarlariga, shuningdek, oʻz vaqtida va sifatli oʻqitishni nazorat qilish esa mehnat muhofazasi boʻlimlari zimmasiga yuklatiladi.

Ishchilar bilan yoʻriqnoma oʻtkazish. Yoʻriqnomalar ikki xil boʻladi: kirish va ish joyida oʻtkaziladigan yoʻriqnoma. Oʻz navbatida ish joyida oʻtkaziladigan yoʻriqnoma 3 xil boʻladi: dastlabki, davriy va navbatdan tashqari.

Kirish yoʻriqnomasi. Barcha ishga yangi kiruvchilar, boshqa korxonalardan xizmat safariga joʻnatilganlar (ish malakasi va stajidan qatʻiy nazar) amaliyot oʻtayotganlar va shogirdlar kirish yoʻriqnomasini oʻtadilar. Uni korxonaning mehnat muhofazasi boʻyicha masʼul xodimi yoki shu vazifa yuklatilgan boshqa rahbar xodim oʻtkazadi. Agar ishga qabul qilish bevosita sexlarda amalga oshirilsa, kirish yoʻriqnomasini shu sexning boshligʻi oʻtkazishi kerak.

Shikastlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha yo'riqnomalarni tegishli mutaxassislar olib boradilar.

Kirish yo'riqnomasi maxsus adabiyot, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan mehnat muhofazasi xonasida, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda o'tkaziladi. Kirish yo'riqnomasi guruh bilan va yakka tartibda o'tkazilishi mumkin. Guruh bilan o'tkazilganda eshituvchilar soni 10 kishidan oshmasligi kerak.

Kirish yo'riqnomasi o'tkazilganligi haqida maxsus jurnalga va ishchi qo'liga topshiriladigan ishga kirish varaqasiga yozib qo'yiladi.

Kirish yo'riqnomasining dasturi:

1.korxona to'g'risida umumiy ma'lumot.

2.mehnat muhofazasi.

Havfsizlik standartlari tizimlari haqida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va balog'atga yetmaganlar mehnatini muhofaza qilish. Davlat, tarmoq va jamoat nazorati. Korxonada baxtsiz hodisalarni taftish qilish. Ichki mehnat tartibi qoidalari.

3.Xavfsizlik texnikasi.

Xavfli, zararli ishlab chiqarish omillari va ulardan himoyalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning va kasb kasalliklarining asosiy sabablari. Xavfsizlik standartlari tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlariga va uskunalariga qo'yiladigan talablar. Uskunalarining asosiy xavfsizlik qoidalari. Ogohlantiruvchi, to'suvchi va signal beruvchi vositalar. Xavfsizlik ranglari va belgilari. Elektr toki bilan jarohatlanish xavfini oshiruvchi sharoitlar. Jarohatlarning oldini olish tartiblari.

Ish joyini xavfsiz tashkil qilish va saqlashga qo'yiladigan talablar. Yuk ko'tarish va tashish mexanizmlari, ichki transport vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari.

4.Ishlab chiqarish sanitariyasi.

Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigienik omillari. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik va tashkiliy, sanitariya-

gigienik, davolash-profilaktik). Ish joylari havosini almashtirishning zarurati va tuzilishi. Yorumlikni to'g'ri tashkil qilish. Shovqinga qarshi tadbirlar.

5. Shaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish me'yori va qoidalari. Himoya vositalariga qo'yiladigan talablar. Korjomalar maxsus poyafzallar. Qo'l, bosh, yuz, ko'z, nafas a'zolari, quloqni himoya qilish. Ogohlantiruvchi moslamalar.

6. Shaxsiy gigiena qoidalari. Sanitariya kiyimlari, poyafzalari va vositalariga qo'yiladigan talablar.

7. Korxonada yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.

8. Mexanik jarohat olganda, kuyganda, kislota va ishqorlar bilan kuyganda zaharlanishda, elektr va ko'z jarohatlari olgandagi dastlabki yordam.

9. Xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalari buzilganda qo'llanadigan javobgarlik.

Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. Barcha ishchilar kirish yo'riqnomasidan tashqari ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomalarni xam bilishlari lozim. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomadan maqsad har bir ishchini to'g'ri va xavfsiz ish usullariga o'rgatish hisoblanadi. Yo'riqnomani o'tkazish jarayonida ishchiga u ishlaydigan uskunada bajariladigan texnologik jarayon, uning harakat uzatish mexanizmlari, xavfli joylari, konstruktiv xususiyatlari, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar, ishni xavfsiz bajarish usullari, ish joyini to'g'ri tashkil qilish va shu kabi masalalar tushuniladi.

Yo'riqnoma o'tkazish ishchining bevosita rahbari bo'lgan ustaga yuklatiladi. Ayrim zarur hollarda bu yo'riqnoma tegishli mutaxassislar (mexanik, energetik, texnolog) ishtirokida o'tkaziladi.

Xodimlarga elektr xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'tkazish va malaka guruhi berish korxona bosh energetigi zimmasiga yuklatiladi.

Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma ishni xavfsiz olib borish qoidalari asosida sex boshliqlari tomonidan tuzilgan va korxona bosh muhandisi tasdiqlagan dastur bo'yicha olib boriladi. Bu yo'riqnomalar ruyxatini korxona bosh muhandisi kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tasdiqlaydi. Ish joyida o'tkaziladigan dastlabki

yo'riqnoma ishchini mustaqil ishlashga qo'yishdan oldin yoki ish xarakteri o'zgargan hollarda o'tkaziladi.

Korxonaga ishga kirayotgan shaxs kasbiy malakasini malakali va tajribali ishchiga biriktirib qo'yish orqali oshiradi. Bunday biriktirib qo'yish sex boshlig'ining vazifasi hisoblanadi.

Dastlabki yo'riqnoma o'tkazish yo'riqnomalarni rasmiylashtirish jurnaliga yozib qo'yish orqali mustahkamlanadi. Barcha ishchilar o'ta xavfli ishlarni bajarishga vazifa olishlaridan avval javobgar rahbar tomonidan yo'riqnoma olishlari va bu haqda jurnalga xavfsizlik choralari ko'rsatilgan holda rasmiylashtirilishi kerak. Ish joylarida o'tkaziladigan yo'riqnomaning dasturi.

1. Texnologik jarayon va uskuna haqida umumiy ma'lumotlar. Asosiy xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari.

2. Ish joyiga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.

3. Uskunaning (mashina, dastgoh, mexanizm) tuzilishi. Xavfli joylari, to'siqlari, ogohlantiruvchi moslamalari, blokirovka va signal berish tizimlari.

4. Ishga tayyorgarlik tartibi (uning sozligini, kerakli asbob-uskunalarining mavjudligini, yerga ulash va boshqa himoya vositalarining mavjudligini tekshirish).

5. Xavfsiz ishlash usullari, xavfli vaziyatlar paydo bo'lganda qilinadigan ishlar.

6. Korjomalar, shaxsiy himoya vositalari va ulardan foydalanish.

7. Ishchilarni elektr xavfsizligini taminlashiga qo'yiladigan asosiy talablar.

8. Sexda xavfsiz harakatlanish sxemasi.

9. Yuk ortish-tushurish va tashish ishlarida xavfsizlik talablari. Yuk ko'tarish, tashish uskunalari va mexanizmlarini xavfsiz ishlatish.

4.2. Texnogen, tabiiy va ekologiktusdagi favquloddavaziyatlar

Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga ko'ra tasnif kilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, maxalliy, respublika va transchegara turlarga bo'linadi.

1. Transport avariylari va xalokatlari:

Ekipaj a'zolari va yolovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya–qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar;

Yong'inga, portlashga, xarakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temir yo'l xodimlarining, xalokat hodisadagi temir yo'l platformalarida, vokzal binolarida va shaxar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaxarli moddalar bilan (KTKZM) halokat joyiga tutash xududning zaxarlanishiga olib kelgan temir yo'l transportidagi halokatlar va avariylar.

Favqulodda vaziyat – bu muayyan xududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, xalokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan xolatdir.

Portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limiga sabab bo'ladigan avtomobil transportning halokati va avariylari, shu jumladan yo'l transport hodisalari;

Odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellardagi xalokatlar, avariylar, yong'inlar;

Gaz, neft va neft mahsulotlarining otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariylar.

2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar:

Atrof – tabiiy muxiti kuchli ta'sir kiluvchi zaxarli moddalarning otilib chikishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, xayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yilgan chegaraviy konsentrasiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya – himoya

hududidan chetga chiqishga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

3. Yong'in – portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar:

Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishiga, zaxarlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayotining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong'inlar va portlashlar;

Odamlarning shikastlanishiga, zaxarlanishiga va o'limiga olib kelgan hamda qidirish – qutqarish ishlarini o'tkazishni nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va xalatlarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxlaridagi va ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariya – yong'inlar va jinslar qo'porilishi.

4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar:

Sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TESlardagi, ulkan issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi bug'qozon bo'lmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariylar va yong'inlar.

Aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariylar.

Atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariylar.

5. Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya – qutqaruv o'tkazalishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini

talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yoʻnalishdagi obʼektlar, shuningdek uy–joy sektori binolari konstruksiyalarining toʻsatdan buzilishi, yongʻinlar, gaz portlashi va boshqa xodisalar.

6. Gidrotehnik halokatlar va avariylar.

Suv omborlarida, daryo va kanallardai buzilishlar, baland togʻlardagi koʻllardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan xamda suv bosgan xududlarda odamlar oʻlimiga sanoat va qishloq xujaligi obʼektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch koʻchirish tadbirlarini talab qiladigan xalokatli suv bosishlari.

XULOSA

Hozirgi kunda sug'urta faoliyati bozor iqtisodiyoti moliyaviy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotning yaxlitlikda barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardandir.

Shu asosda hozirgi kunda sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada takomillashtirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urta tizimini rivojlantirishda rivojlangan sug'urta tizimiga ega xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyekti tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

O'zbekistonda sug'urta bozori jadal rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning barcha yangi sohalarini qamrab olmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan sug'urta biznesini yuritish bo'yicha xalqaro standartlarga mos keng ko'lamli sug'urta xizmatlarini taqdim etadigan sug'urta tizimini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bunda muhim omil bo'layotir. Sug'urta faoliyatini rivojlantirish, yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda qator qonun va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilayotganligi ham sug'urtaning iqtisodiyotimiz uchun muhim faoliyat ekanligidan darak beradi. Mamlakatimizda 2002 yilda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada

isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham bunga yorqin misoldir.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bilan bevosita bog'langan. Shunday ekan ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatgan tabiiy ofatlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'ta olmaydi. Sug'urta ko'p tarmoqli xo'jaliklarning mol-mulkini saqlashda va tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi. Inson va tabiat o'rtasidagi qarama qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni yuzaga keltiradi. Bu ob'ektiv munosabatlar insonlarning erishgan xayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishning sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urta bozorini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilishiga qaramay, sug'urta va sug'urta xizmatlari hali hamon aholi keng qatlamlariga chuqur kirib borolmayotgani va iqtisodiyotda yetarlicha o'z o'rniga ega emasligi barchamizga sir emas. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni o'sishida sug'urta tizimining o'rni va roli beqiyos. Shu nuqtai nazardan sug'urta bozorini rivojlantirish aholi, tadbirkor va ishbilarmonlar uchun turli xildagi xizmat turlarini joriy etish va ularni sodir bo'lish ehtimol bo'lgan zarar va baxtsiz hodisalardan himoyasini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Yuqoridagi tahlil natijalari va sug'urta bozorini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolarni o'ganib chiqib, quyidagi taklif va mulohazalarni amalda joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin:

-sug'urta faoliyatida marketing xizmatidan samarali foydalanish xususan, eng yaxshi reklamani yo'lga qo'yish, servis xizmatlaridan foydalanish, mijozlar bilan ishlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni eng qulay va samarali usullarini yo'lga qo'yish;

- sug'urta faoliyati davomida sug'urta davolarini sifatli va tezkor bartaraf etishga alohida etibor qaratish, sug'urta davolarini bartaraf etish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etish;

-sug'urta madaniyatini oshirish maqsadida konferinsiyalar otkazish, mijozlar qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi strategik rejalar tuzish va joriy qilish;

-sug'urta bozorini takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanish.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalda joriy etish sug'urta bozorini rivojlanirishga imkoniyat yaratadi va mamlakat iqtisodiyoti sug'urta bozorini o'zni va rolini kuchaytiradi deb aytishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Sug'urta faoliyati haqida"gi. Toshkent. 2002 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majmuriy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni. 2008 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi qonun. 2009 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun. 2008 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov. "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2007 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2008 yil.
7. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: -"O'zbekiston", 1997 yil.
8. I.A.Karimov. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish—barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. -T.: "O'zbekiston", 2007 yil.
9. I.A.Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Xalq so'zi, 2007 yil 8 dekabr.
10. I.A.Karimov. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. -T.: O'zbekiston. 2008 yil.
11. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: O'zbekiston, 2008 yil.

12. I.A.Karimov. Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. Xalq so'zi, 2008 yil 7 dekabr.
 13. Ekologiya i bezopasnost jiznedeyatelnosti: Uchebnoe posobie dlya studentov VUZov/ red. L. A. Muraviy, 2002.
 14. Belov S.V. Bezopasnost jiznedeyatelnosti M.: Vysshaya shkola. 2003.
 15. Yormatov G'.Y., Isamuxamedov Yo.U. Mehnatni muxofaza qilish. Darslik. O'zbekistan nashriyoti. Toshkent 2002.
 16. Baymuratov T.M. "Sug'urta faoliyatida risklar transferi" Toshkent "IQTISOD-MOLIYA". Monografiya. 2005.
 17. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. T.: Soliq akademiyasi, 2005.
 18. X.R. Sobirov "Xitoyda sug'urta" "Iqtisod va hisobot" 2005.
 19. Mahmudova L. Sug'urta ishi. T.: TAQI. 2004.
 20. Organizatsiya straxovogo dela. A.B.Krutik. 2000.
 21. Straxovoy marketing M.Ankel M.2000.
 22. Zubes A.N. Straxovoy marketing Rassii, M.:2000.
 23. V.V.Shaxov. Straxovanie. Uchebnik. M.: izdatelstvo "YUNITI". 2000.
 24. Shixov A.K. Straxovanie: Ucheb. posobie dlya vuzov. - M.: YUNITI-DANA, 2000.
 25. Shennaev X.M. Sug'urta sizga nima beradi. –T.: "Fan va texnologiyalar markazi" nashriyoti. 2003.
 26. Klimova M.A. Straxovanie: Ucheb. posobie. - M.: Izdatelstvo RIOR. 2004.
- Internet resurslari.

www.google.uz

www.lex.uz

www.Wikipedia.uz

www.alskom.uz

www.sug'urta.biz

www.unic.gov.uz

www.UzReport.com